

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**ABDULLAEV XURSHIDJON NAZRULLO O'G'LI**

**REAL SEKTOR KORXONALARIGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI  
JALB QILISHNI IQTISODIY MEXANIZMLARI**

(Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK misolida)

**5A 230201 - «Menejment (Real sektor)» mutaxassisligi bo'yicha**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Xodjamuratova G.

**TOSHKENT – 2018**

# M U N D A R I J A

## Kirish.

### **1. Bob. Real sektor korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va uni iqtisodiy mexanizmlarining ilmiy-uslubiy asoslari**

- 1.1. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari.....
- 1.2. Real sektor korxonalari investitsion faoliyatiga ta’sir etadigan omillar va ularning tasnifi .....
- 1.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni iqtisodiy mexanizmlari.....  
I bob bo‘yicha xulosa.....

### **2. Bob. Sirkechi Tashtekstil MCHJ QKga xorijiy investitsiyalarni jalb etish xolatini baxolash**

- 2.1 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK faoliyati tavsifi va boshqaruv tuzilmasi
- 2.2 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XKning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari taxlili
- 2.3 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK faoliyatiga xorij investitsiyalarni jalb etish taxlili  
II bob bo‘yicha xulosa.....

### **3. Bob. Sirkechi tekstil MCHJ QKga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va uni samaradorligini oshirish yo‘nalishlari**

- 3.1 Sirkechi tekstil MCHJ XKda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish usullari
- 3.2 Sirkechi tekstil MCHJ XKga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llari  
III bob bo‘yicha xulosa.....  
Xulosa va takliflar.....  
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

## KIRISH

**Magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligiva asoslanishi.** Mamlakat iqtisodiy o'sishishini ta'minlash uning barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. Rivojlangan davlatlar amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali investitsion siyosatini amalga oshirmsandan va bu jarayonni davlat tomonidan boshqarish vositalarini takomillashtirmasdan turib, iqtisodiyotni etarli darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Ana shuni e'tiborga olib xukumatimiz mamlakatda samarali investitsion siyosatini amalga oshirishga sharoit yaratishga va uni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hususan respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirishni ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini barqaror ravishda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizda engilsanoat tarmoqlarini rivojlantirish hususan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mavjud xomashyodan yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor maqsadlaridan sanaladi. Prezidentimiz M.Mirziyoyev "Investitsiya manzilli, iqtisodiy samarali bo'lishi kerak. Qaysi tumanda qanday salohiyat bor, qaysi joyga qanday korxona kerakligiga qarab, mablag' yo'naltirish zarur. Viloyat hokimlarining investitsiya bo'yicha o'rinnbosarlari oyning 15 kuni chet elda yurishi, aniq loyihalarga investitsiyalar olib kelishi kerak<sup>1</sup>" deb ta'kidlab o'tdilar.

"O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalari ishlab chiqarishi milliy iqtisodiyotda alohida o'rin egallab kelmoqda va korxona tarkibida bo'lgan Sirkechi tekstil qo'shma korxonasi xam ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarga asoslangan bo'lib ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda.

Yurtimizning iqtisodiy barqarorligini taminlanlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omili muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular vositasida mamlakatning

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jizzax viloyati tadbirkorlari bilan suxbati. 24.03.2018 xalq so'zi №36

qo'shimcha investitsiya mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, mamlakat iqtisodiyotiga yangi va zamonaviy texnika va texnologiyalar kirib keladi, ilmiy yangiliklar, zamonaviy menejment usul va uslublari joriy etiladi, xususiyashtirish jarayonlari jadallashtiriladi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozoriga yo'l ochiladi va uning xalqaro maydonlarda raqobatbardoshligi ta'minlanadi, buning natijasida mamlakatning investitsiyaviy xavfsizligi ta'minlanadi. Texnika va texnologiyalarning modernizatsiya qilinishi orqali ma'naviy eskirgan va samarasiz texnologiyalar hisobdan chiqariladi, shuningdek mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkich (indikator)lari, jumladan YAIMning o'sishi, eksport ko'rsatkichlari, ish bilan bandlik, milliy valyutaning barqarorligi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda mahsulot turlarining kengayishi va boshqa ko'rsatkichlarning ta'minlanishida xorijiy investitsiyalar o'ziga xos vazifani o'tab beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"<sup>2</sup>gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi tasdiqlandi.<sup>2</sup> Ushbu Xarakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatda iqtisodiy rivojlanishini ta'minlanishi iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishiga hamda tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirishga, ishlab

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида" ги Фармони. 7 феврал 2017 йил.<http://press-service.uz/uz/document/5482/>.

chiqarish jarayoniga yangi, samarali texnologiyalarni tadbiq qilishni jadallashtirishga, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga, valyuta mablag‘laridan tejamli va oqilona foydalanishga, yangi ish o‘rinlarini barpo qilishga imkoniyat yaratib beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan holatlar O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda real sektor xorijiy investitsiyalarni jalb etishni tadqiq etishga qaratilgan magistrlik dissertatsiya ishining mavzusi dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Magistrlik dissertatsiya ishining **maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlashda tashqi investitsiyalarni real sektor korxonalariga jalb etish omilini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Mazkur maqsadga erishish uchun qo‘yidagi vazifalarni xal qilish belgilab olindi:

- Iqtisodiy rivojlanish xususidagi ilmiy qarashlarni tadqiq etish va uning tarkibiy jixatlarini aniqlash;
- Xorijiy investitsiyalarning mazmuni va ularni O‘zbekistrn iqtisodiyotiga jalb qilishning me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- Xorijiy investitsiyalarning sanoatga jalb qilishning dolzarbligini ilmiy jixatdan asoslab berish;
- O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotiga hususan engilsanoat tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni xolatini taxlil qilish;
- Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishda xorij tajribasini o‘rganish

**Tadqiqotning ob’ekti** O‘zbekistonda real sektor korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va unda xorijiy investitsiya omilining o‘rni, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyati va Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Mamlakatimiz real sektor korxonalariga hususan “Sirkechi Tashtekstil ”MCHJ XKga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, uni iqtisodiy

mexanizmlari va davlat tomonidan qo'llab-quvatlash va undan foydalanish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi ilmiy tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiya ishida erishilgan va himoyaga olib chiqilayotgan ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

–xorijiy investitsiyalarni jalg etishning huquqiy asoslari va o'ziga xos hususiyatlari muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

–xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

–O'zbekiston Respublikasi hududlarida xorijiy investitsiyalarni jalg etishning samaradorligi baholangan va investitsiya siyosatini yuritishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

–O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati bo'yicha klassik iqtisodchilardan U.Petti,A.Smit, D.Rikardo va hozirgi zamon olimlaridan R.Kempbell, K.Makkonel, G.Menkyu<sup>3</sup> tomonidan, xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni masalasi Viba Kapuriya–Foreman, Erget Fered, Bev Delbi, Gilbert Mitkelf, M.Kornilov, T.E.Kochergina, D.V.Gordienko, A.Illarionov, S.Dadalko, K.B.Gerasimov, G.F.Nesolenov, L.N.Pavlova<sup>4</sup> kabi etakchi xorijiy olimlar asarlarida o'rganilgan.

<sup>3</sup>Петти У. Трактат о налогах и сборах. Verbimsapienti – слово мудрым. Разное о деньгах. – М.: «Ось-89», 1997. – 346с.; Смит А. Исследования о природе и причина богатства народов. Пер. с англ. Москва. 1962г. – 408с.; Риккардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. – 360с.; Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. Пер.16-го англ.изд. – М.: «ИНФРА-М», 2006. – 940с.; Менкью Н.Г. Принципы экономикс. – СПб: Питер Ком, 1999. – 784 с.

<sup>4</sup>Vibha Kapuria-Foreman . Economic Freedom and Foreign Direct Investment in Developing Countries. The Journal of Developing Areas, Vol. 41, No. 1 (Fall, 2007), p. 151. <http://www.jstor.org>; Ergete Ferede and Bev Dahlby, "The Impact of tax cuts on economic growth: Evidence from the Canadian Provinces". Source: National Tax Journal, Vol. 65, No. 3 (September, 2012), pp. 563-594. <http://www.jstor.org/stable/41791138>; Peter R. Merrill Corporate Tax Policy for the 21<sup>st</sup> Century. NationalTaxJournal, Vol.63, No. 4, Part 1: TaxPolicyinatimeofGridlock (December, 2010), pp.623-633. <http://www.jstor.org/stable/41791071>; Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Обществои экономика, №4, 2003.С.87.; Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. -С.6.; Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning metodologik asoslari O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning asarlarida keng yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda investitsiya masalasi respublikamizning A.O’lmasov, A.Vaxabov, A.Sodiqov, SH.Toshmatov, Sh.Shodmonov, U.G‘afurov, H.Abulqosimov, T.Rasulov, SH.Xajibakiev, N.Mo‘minov, N.Kuzieva, N.Karimov, R.Xojimatov, Z.Xudoyberdiev<sup>5</sup> va boshqa ko‘plab olimlari ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar tavsifi.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot naktijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ilmiy izlanish natijasida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar, qo‘llanilgan usullardan kelgusida mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi, iqtisodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtlarida ushbu mavzuga doir fanlarning o‘qitilishida foydalanish mumkinligi nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq mamlakat iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkich (indikator)larining maqbul nisbatini ta’minlash bo‘yicha me’oriy hujjatlar ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi amaliy ahamiyatini namoyon etadi.

**Dissertatsiya ishinng tarkibi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, 8 ta band, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati xamda ilovalardan iborat.

---

<sup>7</sup>государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. –С.8.; Илларионов А. Критерии экономической безопасности. // Вопросы экономики. 1999. №10.; С.Дадалко, З.Козловская, В.Дадалко “Привлечение иностранных инвестиций в контексте национальной безопасности”, “Банковский вестник”, 2013 г.; К.Б. Герасимов, Г.Ф. Несоленов. Экономическая безопасность. Утверждено Редакционно-издательским советом университета в качестве учебного пособия. САМАРА Издательство СГАУ – 2011.; Иностранные инвестиции. В кн.: Л.Н.Павлова. Финансы предприятий.-М.,2004.-с.171.

<sup>5</sup>Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Т.: Шарк, 2014.; А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев, Н.Г.Муминов “Хорижий инвестициялар”-Т “Молия”, 2010 й.; Ҳ.П. Абулкосимов. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўкув кўлланма Т.:Akademiya, 2012.; З.Я.Худойбердиев, Д.Д.Рустамова, Н.М.Мажидов “Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш”, Ўкув кўлланма, Т.; “Чулпон”, 2010 й.; Н.Ф.Каримов, Р.Х. Хожиматов. Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш: Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2011. -801 б.; Ш. Тошматов. Хорижий инвестицияларни жалб қилишда иқтисодиётни эркинлаштириш масалалари// Республика илмий-амалий конференцияси. –Т.: Давлат бошқаруви академияси, 24.04.2015. 3-7 бетлар.; Н. Кузиева Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар молия ва кредит механизмини такомиллаштириш ўйлари. Монография. Т.: 2006.

# **IBOB. REAL SEKTOR KORXONALARIGA XORIJIY INVESTITSIYALARINI JALB ETISH VA UNI IQTISODIY MEXANIZMLARINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI**

## **1.1.O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari**

Bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, inovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kundan-kunga yangidan-yangi ushbu tizimni takomillashtirish maqsadida qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Mazkur tizimning bir bo‘lagi, lekin, bu yo‘lda juda katta ahamiyatlisi esa – chet el investitsiyalari hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz o‘z nutqlarida xorijiy investorlarni jalg qilish maqsadida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish zarurligini takror va takror ta’kidlab o‘tganlar. Shu sababli ushbu tezisni yurtimizda chet el investitsiyasini jalg qilish uchun chet ellik investorlarga qonunchiligidan qanday ikoniyatlar, kafolatlar, imtiyozlar va shu bilan birga qanday muammolar mavjudligi haqida to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obe’ktlariga qo‘shadigan barcha turdagи moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlari, shu jumladan, intelektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuning **1-moddasida** chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish bo‘yicha kompleks choralarni shakllantirish ushbu qonunning maqsadi ekanligi belgilangan.

Shunday ekan eng avvalo biz xorijiy investorlar kimlar bo‘la olishiga anqilik kiritib olishimiz zarur. 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

## **“Chet el investitsiyalari to‘g‘risida” gi Qonunga ko‘ra O‘zbekiston**

### **Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:**



chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma’muriy yoki hududiy organlari;



davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki halqaro ommaviy huquq sub’ektlari bo‘lgan halqaro tashkilotlari



chet el davlati fuqorolari bo‘lmish jismoniy shaxslar, fuqoroligi bo‘lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqorolari.



chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar

### **1.1-Rasm. Investorlar turlari<sup>6</sup>**

Ushbu sanab o‘tilgan shaxslar yuqorida aytib o‘tilganidek, xorijiy investorlardir. Bular O‘zbekiston Respublikasi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasida belgilanagan huquqlarining kafolatlari ega bo‘ladi. Mazkur normaga muvofiq, davlat O‘zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi.

Ushbu hujjatda quyidagi tushunchalarni ko‘rsatib o‘tsak maqsadga muvofiq hisoblanadi, ushbu tushunchalar yangi tahrirga ko‘ra qayta ko‘rib chiqildi. Ya’ni

<sup>6</sup> “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq muallif tomonidan chizilgan

investitsiyalar qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdag'i faoliyat obektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

\* investor — investitsiya faoliyati obektlariga o'z mablag'larini investitsiya qilishni va boshqa investitsiya resurslarini jalb etishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subekti;

\* investitsiya majburiyati — investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun investorning o'zi qabul qiladigan majburiyati;

\* investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyati subektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

\* investitsiya faoliyati ishtirokchisi — investorning buyurtmalari bajarilishini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subekti;

\* reinvestitsiyalar — investitsiyalardan olingan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdag'i faoliyat obektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, roylati, litsenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu bobda investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydigan investitsion resurslar haqida ma'lumot berish lozim. Investitsion resurslar haqida qonuniy va me'yoriy hujjatlarda tasdiqlangan. Ularning shakli, tarkibi va tashkil etuvchi manbalari ko'rsatilgan quyidagi modda mavjud bo'lib unga ko'ra:

Investitsiya resurslariga quyidagilar kiradi:

\* Pul va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

\* Ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo'lgan huquqlar

\* Intellektual mulk obektlari, shu jumladan texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi majmui, nouxau:

\* Yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolarga, inshootlarga, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

## 1.2-Rasm. Investitsiya resurslari<sup>7</sup>

<sup>7</sup> А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев, Н.Г.Муминов “Хорижий инвестициялар”-Т “Молия”, 2010 й.;

Investitsiya resurslariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qimmatliklar ham kiritilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi birinchi navbatda o'z manfoatini ko'zlab yagona bir maqsadga, ya'ni foyda olishga yoki ijtimoiy samara olishga intiladi.

Investitsiya faoliyatida investitsiya sub'ekti, investitsiya ob'ekti, investor, emitent, investitsiya resurslari kabi tushunchalar mavjud.

**Investitsyaning ob'ekti** bo'lib, mablag'lar ya'ni boyliklarni safarbar etayotgan ob'ektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari bo'lishi mumkin.

**Investitsiya sub'ekti** bo'lib, investitsiyani amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Ular: xorijiy davlatlar, halqaro tashkilotalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, mulk egasi bo'lgan fuqorolar bo'lishi mumkin.

**Investorlar** - o'z kapitalini investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amlga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ektidir.

**Emitent** – qimmatli qog'ozlarni muammalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to'lovga qobiyatli jismoniy shaxslar.

**Investitsiya resurslari** – bu investitsion faoliyati amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko'rinishdagi mablag'lardir.

Investitsiyalarni jalb qilishda asosiy ishlardan biri bu investorga kafolatlar bera olish hisoblanadi. Ya'ni investitsyaning xavfsizligini ta'minlashdir. SHu asosda qonun bilan belgilangan tartibda investitsion faoliyat ishtirokchisi o'ziga xos majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi.

## **Investitsiya faoliyati ishtirokchisining majburiyatları:**

- qonun hujjatlarida belgilangan texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablariga rioya etishi;
- shartnomalarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishi;
- shartnoma majburiyatları bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli investorga etkazilgan zararning o‘rnini qoplashi;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qo‘yadigan talablarini bajarishi;
- mablag‘lardan belgilangan maqsadda foydalanishi;
- litsenziyalanishi lozim bo‘lgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya olishi shart.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining amalga oshirilishi ta’minlanishini hisobga olgan holda fuqaroligi, yashash joyi, diniy e’tiqodi, iqtisodiy faoliyati qaerda amalga oshirayotganligiga, shuningdek investorlar yoki investitsiyalarning qaysi mamlakatga mansubligiga qarab chet ellik investorlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonun hujjatlari, shu jumladan idoraviy normativ hujjatlar, agar ularning ijrosi chet ellik investorga yoki chet el investitsiyalariga zarar etkazsa, ular orqaga qaytish kuchiga ega emas.

“Agar O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi. Chet ellik investor o‘z xohishiga ko‘ra yangi qonun

hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalari qo'llash huquqiga egadir.”<sup>8</sup>

Keyingi qonun hujjatlari munosabati bilan investitsiyalash shart-sharoitlari yomonlashgan taqdirda investitsiyalash paytida amal qilgan qonun hujjatlarini o'n yil mobaynida qo'llash to‘g‘risidagi kafolat:

-chet ellik investorga to‘lanadigan dividendlar shaklida olinadigan daromadga solinadigan soliq miqdori (stavkalar) ko‘payishi;

-chet ellik investorning chet elga o‘tkaziladigan daromadi (foydasi)ni repatriatsiya qilish tartib-qoidasini murakkablashtiradigan yoki uning miqdorini kamaytiradigan qo‘s Shimcha talablar joriy etilishi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona to‘lov qobiliyatiga ega bo‘limganda va bankrotga uchraganda yoki kreditorlarning huquqlarini himoya qilish, chet ellik investor — jismoniy shaxs tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmish yoki ma’muriy huquqni buzishlar, yoxud sud yoki hakamlik qaroriga muvofiq bunday repatriatsiyani to‘xtatib turish zaruriyati hollarida kamsitmasdan qonun hujjatlarini qo’llash shartlarida chet ellik investorning mablag‘larini repatriatsiya qilish davlat tomonidan to‘xtatib qo‘yilgan hollar bundan mustasno;

-investitsiyalashni amalga oshirish hajmlariga miqdoriy cheklashlar va investitsiyalar miqdori bo‘yicha, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda chet el investitsiyalarining eng kam miqdorini ko‘paytirish shaklidagi boshqa qo‘s Shimcha chora-tadbirlar joriy etilishi;

-respublika korxonalarining ustav fondlarida chet ellik investorning ulushli qatnashishi bo‘yicha cheklashlar joriy etilishi;

-chet ellik investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va muddatini uzaytirishning qo‘s Shimcha tartib-qoidalari, shuningdek chet el investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha boshqa qo‘s Shimcha talablar joriy etilishi hollarida qo‘llanadi.<sup>9</sup> Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi “Chet ellik investorlar huquqlarining

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 93-модда

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2005 й., 30-31-сон

kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunining 5, 6, 7 va 8-moddalarida xuddi shu ketma-ketlikka mos ravishda davlat mulkiga aylantirishdan, mablag‘lardan foydalanish kafolatlari, mablag‘larni o‘tkazish, investitsiya faoliyati to‘xtatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kabi bir nechta kafalatlar belgilangan.

Mazkur kafolatlar umumiy kafolatlar hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiyashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarini keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta’minalash maqsadida bir qancha farmon va qarorlarda boshqa kafolatlar belgilanishi mumkin. Shulardan biri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarini jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmonidir. Ushbu farmonga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarini jalb etadigan va ushbu farmon bilan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod qilinishi nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarini jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan tasdiqlangan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari Ro‘yxati”da bir nechta ishlab chiqarish tarmoqlari ham nazarda tutilgan. Ya’ni, investor ro‘yxatda kelitirilgan ishlab chiqab chiqavrish tarmoqlaridan birigi investitsiya kirtsa va belgilangan talbalarga javob bersa, yuqorida

sanab o‘tilgan imtiyoz va kafolatlarga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoniga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha — 3 yil muddatga;

3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha — 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda — 7 yil muddatga.

Bundan tashqari quyida berilagan talablarga ham javob berishishi zarur:

mazkur korxonalarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

xorijiy investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarining ulushi kamida 33 foizni tashkil etishi lozim;

xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo‘yish;

mazkur imtiyozlarni qo‘llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo‘naltirish.<sup>10</sup>

Yuqoridagi Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2016 yil 9 avgustdagи 61, 2016-24 va 121-son qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu qo‘shma qarorga asosan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida” Nizom tasdiqlangan. Ushb qaroda Farmonda keltirib o‘tilgan shartlar birgina o‘zgartirish kiritligan. Unga ko‘ra, korxonaning ustav

---

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2012 й., 15-сон, 167-модда

kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni, aksiyadorlik jamiyatlarida esa kamida 15 foizni tashkil etishi lozimligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya munosabatlarini tartibga solish o‘zagini 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, 1998 yil 30 apreldagi “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”, 1998 yil 30 apreldagi ”Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunlar tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, chet el investitsiyalari to‘grisidagi, chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘grisidagi Qonun hujjatari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan ham tartibga solib borilmoqda. “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunda investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatariga izox berilgan. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatar ushbu Qonun va boshqa qonun hujjataridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya faoliyati soxasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatari bilan ham tartibga solinadi. Huquqlarni berish paytida taraflarning o‘zaro munosabatlari ular tuzadigan shartnomalar asosida tartibga solinadi. Investitsion faoliyat to‘g‘risidagi qonunda faoliyat ishtirokchilarini ham huquqlari ular bilan teng holda himoyalangan. Jumladan:

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli:

- tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo‘lish;
- investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish;
- agar qonun hujjatarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, investor oldidagi o‘z majburiyatini bajarishga boshqa shaxslarni jalb etish;
- agar qonun hujjatarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, investitsiya faoliyati obektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejamni mustaqil ravishda tasarruf etish. Investitsiya faoliyati ishtirokchisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Investorlarning bu huquqlari bilan ko'shimcha ravishda ularning majburiyatlari mamlakat oldidagi majburiyatlarni bajarish ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan;

**Investor:**

- investitsiya loyihalarida sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishi;
- monopoliyaga qarshi qonun hujjatarining talablariga rioya etishi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi;
- shartnama bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli investitsiya faoliyati ishtirokchisiga etkazilgan zararni qoplashi;
- mahalliy davlat xoqimiyyati organlari va davlat boshqaruvi organlarining o'z vakolati doirasida qo'yiladigan talablarini bajarishi shart.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda "Investitsiya fondlari, Investitsiya faoliyati subektlari huquqlarining kafolatlari, Investitsiyalarni himoya qilish, Mablag'lardan foydalanish kafolatlari, Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari, Ochiq axborotdan erkin foydalana olish", kabi qo'shimcha va asosiy ma'lumotlar moddalar bilan qonuniy shaklda tasdiqlab qo'yilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonuniy hujjatlar asosida biz mamlakatimizda olib borilayotgan investitsion siyosat va faoliyatning huquqiy asoslari haqida qisqacha fikrga ega bo'ldik. YA'ni unga ko'ra davlatimiz investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish jarayoni asosan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili yangi tartibda tasdiqlanadigan "Investitsiya dasturi" orqali amalga oshirib boradi va mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytib o‘tishimz mumkinki, xorijiy investorlarni yurtimizga jalb qilishdan asosiy maqsad, O‘zbekistonga chet el valyutasi va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqiralishida xorij tajribasini o‘rganib, inovatsion g‘oyalarni ta’dbiq qilishdan va shu asnoda ularga birmuncha engilliklar yaratib berishdan iborat. Yuritimizning investitsiya salohiyati qancha kuchli bo‘lsa, xalqimiz xam boy bo‘ladi. Prezidentimiz ham investitsiyaga katta e’tibor bergen holda 2017 yil 31 mart kuni O‘zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institatlari, xorijiy hukumatlarning moliya institatlari, etakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” Prezident Farmonini imzoladi. Ushbu farmonga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqlar, investitsiyalar va savdo vazirligi, «O‘zbekspertiza» aksiyadorlik jamiyatining bir qancha vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasiga o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu kabi chara-tadbirlar yana davom etadi degan umiddaman.

Xorijiy investitsiyalar tarkibida to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko‘paytirishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Investitsiyalarni real ishlab chiqarishga, xizmat ko‘rsatishga birinchi navbatda xom – ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim deb o‘ylayman.

## **1.2. Real sektor korxonalari investitsion faoliyatiga ta'sir etadigan omillar va ularning tasnifi**

Investitsiya faoliyati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu faoliyat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma’naviy ehtiyoj qondirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma sohasining rivojlanishini ta’minalash mumkin. Hozirgi zamonda investitsiya faoliyati iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o‘zlashtirish, aholini ish bilan ta’minalash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabilarni hal etishga qaratilishi kerak.

Shu o‘rinda investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, mazkur jarayonning ko‘p qirraligi unga berilgan ta’riflarning o‘zida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, SH.SHodmonov va U.G‘afurovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida «Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir. Investitsiyalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – investor deyiladi»<sup>11</sup>, deb belgilangan.

Investitsiya faoliyati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu faoliyat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma’naviy ehtiyoj qondirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma sohasining rivojlanishini ta’minalash mumkin. Hozirgi zamonda investitsiya faoliyati iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o‘zlashtirish, aholini ish bilan ta’minalash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabilarni hal etishga qaratilishi kerak.

<sup>11</sup> Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: IQTISOD-MOLIYA nashriyoti, 2010. 477-6.

Bizningcha, investitsiyalarni ma'lum bir mezonlarga ko'ra tarkumlab, ularni turlarga ajratishimiz mumkin.

### **1.1-jadval**

#### **Investitsiyalarning tarkumlanishi<sup>12</sup>**

<b>MEZONLARI</b>	<b>TURLARI</b>
<b>Ob'ektiga ko'ra</b>	Xaqiqiy investitsiya
	Moliyaviy investitsiya
	Intellektual investitsiya
<b>Amalga oshirilish shakliga ko'ra</b>	Nominal
	Real
<b>Markazlashish darajasiga ko'ra</b>	Markazlashgan investitsiya
	Markazlashmagan investitsiya
<b>Investitsiyalashda ishtirok etishga ko'ra</b>	To'g'ri investitsiya (bevosita investitsiya)
	Egri investitsiya(bilvosita investitsiya)
<b>Investitsiyalash davridagi qo'yilmani muddatiga ko'ra</b>	Qisqa muddatli investitsiya
	Uzoq muddatli investitsiya
<b>Mulkchilik shakliga ko'ra</b>	Xususiy investitsiya
	Davlat investitsiyasi
	Qo'shma investitsiya
	Chet el investitsiyasi
<b>Xududiy belgilariga ko'ra</b>	Mamlakat ichiga qo'yilma
	Chet elga qo'yilma
<b>Mamlakat miqyosi yoki undan tashqarida amalga oshirilishiga ko'ra</b>	Ichki investitsiya
	Tashqi (xorijiy) investitsiya
<b>Risk darajasiga ko'ra</b>	Risksiz investitsiya

<sup>12</sup>Жадвал магистрант томонидан ишлаб чиқилган.

	Kamriskli investitsiya
	Urtacha riskli investitsiya
	Yukori riskli investitsiya
	Spekulyativ investitsiya
<b>Maqsadi va risk bilan bog'likligiga ko'ra</b>	Venchurli (riskli)
	To'g'ridan-to'g'ri
	Portfelli
	Annuitet

Investitsiyalarni jalg etishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Ijtimoiy omillar: - xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining munosabati; - ishchilar qatlaming ijtimoiy faolligi; - jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlilik darjasи; - umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati; - jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalarning mavjud ekanligi;

Shuningdek xorijiy investitsiyalarga quyidagi ikki guruh omillari ta'sir ko'rsatadi.

## 1.2-jadval

### Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar<sup>13</sup>

IQTISODIY OMILLAR	SIYOSIY OMILLAR
Ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi	kapital eksportini erkinlashtirish
Jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi	rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish
Ishlab chiqishni halqaro ixtisoslashuvi	iqtisodiy islohotlarni olib borish

<sup>13</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

va kooperatsiyalashuvining chuqurlashushi hamda jahon iqtisodiyotini transmilliyashtirishni o'sib borishi	
Integratsiya jarayonlarining chuqurlashushi, halqaro iqtisodiy munosabatlarining faol rivojlanishi va boshqalar	bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar

Yuqoridagi omillar investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda muhim rol o'ynab iqtisodiyotga sezilarli ta'sir o'tkazib turadi. Investitsiyalarni kiritishda, eng avvalo: – investitsiya faoliyati subyektlarining erkinligi va tashabbuskorligining to'liq ta'minlash; – ma'lum bir sohani rivoji uchun kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklarga investitsiya maqomini berish; – qonun bilan belgilangan tartibdagi investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishi zarur hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va tadbirkorlikning erkin tarmoqlariga kapitalning oqib o'tishi tizimi bilan shartlashgan ob'ektiv zarurat hisoblanadi<sup>14</sup>. SHuningdek, investitsyaning mamlakat miqyosi yoki undan tashqarida amalga oshirilishiga qarab ichki va tashqi (xorijiy) investitsiyalarga ajratiladi. Agar ichki investitsiyada bir mamlakat ichidagi qo'yilmalar nazarda tutilsa, investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga va boshqa turdag'i faoliyat ob'ektlariga qo'shayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka nisbatan huquqlarning barcha turlari chet el investitsiyalari hisoblanadi. Chet el investitsiyasi – bu nafaqat moliya resurslari, shuningdek yangi texnika, zamonaviy chet el texnologiyasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning

<sup>14</sup> Иностранные инвестиции в России. – В кн.: Международные экономические отношения: под.ред. Е.Ф.Жулова.- М., 2004.-с.67.

yangicha usullari hamdir. Chet el sarmoyalarini jalb etishda chet ellik investorlarga ularning mamlakatimizda erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay investitsiya iqlimi yaratib berish zaurligini ham hisobga olish lozim. Bu ma'suliyatni avvalo davlat o'z zimmasiga olish kerak.

Xorijiy investitsiyalar-bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Xorijiy investitsiyalari ichki investitsiyalaridan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Xorijiy investitsiyalari ichki investitsiyalaridan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqorosi bo'ladi.

Hozirgi vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokida yangi korxonalarning barpo etilganligi hukumatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham vatanimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdag'i korxonalarni rag'batlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. CHunki g'ar bir investor o'z sarmoyasini biror hududga kiritar ekan uni befarq qoldirmaydigan va e'tiborini tortadigan asosiy masala u erda amal qilayotgan soliq imtiyozlari hamda soliq qonunchiligi masalasidir. Shu sababdan soliq imtiyozlarini berishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilmaslikka olib keladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosidagi investitsiyalarni talab qiladi. Demak, investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekanlidan kelib chiqib barcha imkoniyatlardan foydalanib iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rnlari yaratish va shu asosda

mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

So'ngi yillarda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosida jalb etish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:


- Xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko'rilgan zararlarni qoplashi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarini xoridga olib chiqib ketishning erkinligi;
- bojxona imtiyozlarnining mavjudligi;
- xorijiy investitsiyalarning mulklari va ularning o'zlarini xafv xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyotni o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo'naltiriladi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi.

Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti uchun ta'siri borasida qarama-qarshi fikrlar borligini, ya'ni: ular ijobjiy bo'lishi bilan birga salbiy

ta'siri kam borligini inkor etib bulmaydi. Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi davlat iktisodiyoti uchun ta'sirini 1.3-rasmda ko'rishimiz mumkin.



### **1.3-rasm. Xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri<sup>15</sup>**

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqarorligini mustahkamlashda bir qator ijobjiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, u mamlakatning moliya qatlamida ichki jamg'armalarni etishmayotgan mablag'lar bilan to'ldirishda va investitsion xavfsizlikni ta'minlashda ancha qo'l keladi. Ushbu jarayonning mazmuni shundaki, xorijiy investitsiyalar davlat tomonidan rejalashtirilgan xarajatlarni (davlat jamg'armalari, valyuta zahirasi, davlat daromadlarini to'ldirish) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiya mablag'larini jalb etish orqali etishmayotgan mablag'larni qoplash, ushbu xarajatlarni amalga oshirishda uzilishlarni oldini olish imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va transmilliy korporatsiya (TMK)larda foydani reinvestitsiya qilish, ya'ni qayta foydali faoliyat uchun yo'naltirish orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiradi, bu esa mavjud aktivlardan samarali foydalanishga va mamlakatda moliyaviy resurslarga bo'lgan

<sup>15</sup> Bekmurodov A.SH., Karrieva Y.A.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 166 b.

qo'shimcha extiyojning qondirilishga va shu orqali iktisodiy xavfsizlik indikatorlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Xorijiy va qo'shma korxonalar, shuningdek TMKlarda orttirilgan foydani reinvestitsiya qilishlari hamda kapital chiqib ketishini oldini olishlari uchun xukumat qo'lida xuquqiy, ma'muriy-tashkiliy vositalar mavjudki, davlat doimo ularni ishlab chiqarish faoliyatiga investitsiya kiritishlari uchun rag'batlantirib, keng yul ochib berishi zarur. Zero, xorijiy investorlar qo'lidagi orttirilgan foya mamlakat iqtisodiyoti uchun tayyor qo'shimcha investitsiya manbasi hisoblanadi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va korxonalar tashkil etish natijasida qabul qiluvchi davlatda soliq tushumlarini ko'paytirish va byudjet daromadlarini oshirish mumkin. Mamlakatimizda soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 90 %idan ziyodini tashkil etadi, byudjet daromadlarining qariyb 60 %i ijtimoiy sohaga yo'naltiriladi, bu esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyatidan olinadigan foya uchun to'lanadigan soliqlar qabul qiluvchi mamlakatga o'z g'aznasini to'ldirish imkonini beradi.

Mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish borasida risklarni baxolash bo'yicha quyidagi punktlar bo'yicha baxolash jadvalini korishingiz mumkin:

#### 1.3-jadval

#### **BERI indeksi<sup>16</sup>**

<i>Nº</i>	<i>Mezonlar</i>	<i>Salmog'i, %</i>
1.	<b>Siyosiy barqarorlik:</b>  <b>kutilmagan hukumat to`ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta`sirini baholaydi</b>	<b>12</b>
2.	<b>Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat:</b>  <b>xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo`lgan xarajatlar hajmi</b>	<b>6</b>
	<b>Milliylashtirish:</b>	

<sup>16</sup> ИМОМОВ Ҳ.Ҳ. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш: Ўкув кўлланма. – Т.: - ТДИУ, 2011

3.	beg`araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy xomiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Deval`vatsiya: deval`vatsiya ta`siri hamda korxona faoliyatiga deval`vatsiyaning ta`sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyligi	6
5.	To`lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta`sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o`tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o`sish sur`atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur`atlarining o`sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
8.	Valyutaning konvertirlangani: milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati hamda milliy valyutaning (korxonalarga zarur bo`lgan darajada) valyutalar bozoridagi o`rni	10
9.	SHarnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdarligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdarligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalarga yuridik, buxgalteriya, marketing bo`yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo`llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini echishda o`z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo`lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
	Qisqa muddatli kredit:	

14.	<b>xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati</b>	<b>8</b>
15.	<b>Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kaptaliga o`z ulushlarini qo`shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari</b>	<b>8</b>

Xorijiy investitsiyalar ijtimoiy qatlamda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi kompaniyalar tashkil etish orqali o‘rtacha mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bunday kompaniyalar har bir mehnat birligiga yuqori darajada kapital kiritishga qodir bo‘ladilar, bu esa mehnat unumdorligining o‘sishiga bevosita ta’sir etadi. Shu bilan birga, ular vositasida aholi bandligini ta’minlash va ishsizlikni bartaraf etish mumkin. Aholini ish bilan bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### 1.3.1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining imitatsion baholanishi<sup>17</sup>

<b>No</b>	<b>BERI indeksi mezonlari</b>	<b>Bahosi</b>	<b>Salmog`i, %</b>	<b>Indeks</b>
1	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliylashtirish	2	6	0,12
4.	Deval`vatsiya	0	6	0
5.	To`lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o`sish sur`atlari	1	10	0,01

<sup>17</sup> Doing biznes reyting agentligi ma`lumotlari

<b>8.</b>	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
<b>9.</b>	SHarnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
<b>10.</b>	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
<b>11.</b>	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
<b>12.</b>	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
<b>13.</b>	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
<b>14.</b>	Qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
<b>15.</b>	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
<b>16.</b>	JAMI		100	1,61

Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo`lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblanadi. Har bir mezonga 0 dan (to`g`ri kelmaydi) 4 gacha (o`ta qulay) baho beriladi. To`plangan yuqori ball “barqaror mamlakat”ni anglatadi. Mamlakat to`plagan ball qanchalik yuqori bo`lsa, investitsiyalashdan olinishi mo`ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo`lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. Beri indeksining umumiy ko`rinishi quyidagicha:

O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan Beri indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion baholangan bo`lib, u quyidagi jadvalda keltirilgan:

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi (1.3.1-jadval). Ular jahondagi o`n bir obro`li agentlik tomonidan

ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – amerika, uchtasi – yapon, ikkitasi – kanada va bittasi angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90 foizi ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir – Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service.

Investitsiyalarni jalg qilishda quyidagi 5 ta asosiy talablar mavjud:

1. mamlakatdagi kuchli va deyarli mukammal holatga yaqin bo'lgan investitsion menejerlarning mavjudligi;
2. mamlakatdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarning jahon bozorlaridagi boshqa xuddi shunday mahsulot va xizmatlarga nisbatan taqqoslaganda raqobatbardoshligi jihatdan ustunroq bo'lishi lozim;
3. mamlakat jahon bozorining katta xajmda boshqa xech qaysi mamlakatda mavjud bo'lмаган mahsulot yoki xizmatlarni ko'rsatib egallashi lozim;
4. yaqqol mavjud yoki kelajakda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan qonuniy to'siqlarning yo'qligi;
5. kelajakda mamlakatning ma'lum muddatga mo'ljallanganligi rivojlanishi uchun aniq reja va tushunarli strategiyaga ega bo'lishi kerak<sup>18</sup>.

Mamlakatga investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish konsepsiyasining asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko'rib, investitsion resurslarni jalg qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur.
- investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;
- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtiroy etayotgan investorning manfaatlari hamda mamlakatning manfaatlarining mos kelishini inobatga olish lozim;
- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan

---

<sup>18</sup> Saidkomolov.M IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI MD TMI.2016

natijalardan manfaatdor bo'lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Mazkur yondashuvlaga ko'ra investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiysi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, shuni aytish lozimki har bir konseptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ular asnosida korxonalar tashkil etish mamlakat iqtisodiyotida raqobatchilik muhitini faollashtiradi. Xorijiy kompaniyalarning mahalliy bozorlarga chiqishi milliy korxonalarning yanada samaraliroq faoliyat yuritishini talab etadi za raqobatchilik muhitini faollashtiradi. Xorijiy firmalar o'z faoliyatlarida zamonaviy texnologiyalarni va yangi menejment tajribalarini tezlik bilan joriy qilishga moyilligi orqali mahalliy korxonalarga ibrat bo'ladi va ularni innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga majbur etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 5 mingga yaqin sha shunday xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqdalar.

Xorijiy investitsiyalar o'zi bilan, birinchi navbatda, ilg'or texnologiyalarni jalb etilishiga turki bo'ladi. Xorijiy investorlar o'zlarining bozordagi o'mini saqlab qolish maqsadida turli tadqiqotlar va izlanishlarni olib borish imkoniyatlariga egadirlar. Aynan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar rivojlangan raqobatbardosh firmalar hisoblanib, ular xarajatlarning katta qismini fan-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun sarflashga hamda ishlab chiqarish faoliyati uchun yangi fan-texnika yutuqlarini joriy etishga qodir bo'ladilar. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning mavjudligi raqobatni rag'batlantirib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatchilik muhitida g'olib chiqishlari uchun xorijiy tajribalarni o'rganishga va ulardan andozalar olishga undaydi. Bu esa nafaqat texnologiyalarning darajasini oshishiga, shu bilan bir qatorda cheklangan resurslardan samarali foydalinishga ham bevosita ta'sir etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga davlat milliy iqtisodiyot rivojlanishining investitsiyaviy turi orqali erishadi. Har bir mamlakat shu yo'nalish turini amalga oshirib, har doim mamlakat iqtisodiyoti uchun maksimal samara beradigan optimal nisbatni ta'minlashga harakat qiladi. Bunda:

–investitsiyalar hajmi YAIMning 20-25 foizini tashkil etishi lozim.

–to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar salmog‘i jami ichki investitsiyalarning 15-17 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

–iqtisodiyot tarmoqlari buyicha asosiy vositalarning eskirish darajasi 30-35 foizdan yuqori bo‘lmasligi zarur<sup>19</sup>.

Yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlarni O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.

### **1.3-jadval**

#### **Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda investitsiyaning mamlakat iqtisodiyoti uchun maksimal samara beradigan optimal nisbati<sup>20</sup>**

KO‘RSATKICHLAR	Yillar				
	2013	2014	2015	2016	2017
Investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda	24,0	24,6	25,4	25,4	x
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jami ichki investitsiyalardagi salmog‘i, foizda	21,3	18,9	17,2	18,4	19,3
Iqtisodiyot tarmoqlari buyicha asosiy vositalarning eskirish darajasi(yil oxiriga, foizda)	36,9	37,1	37,2	37	x

1.3-jadvaldan, ko‘rinib turibdiki jami investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, 2013 yida 24 foizdan 2016 yilda esa 25,4 foizga o‘sgan. Bu me’yor darajasida. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jami ichki investitsiyalardagi salmog‘i 2013 yilda 21,3 foizdan 2015 yilda 19,3 foizga pasaygan. Jahon tajribasiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 15-17 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. SHu

19 Д.В.Гордиенко. Экономическая безопасность России:понятие, структура, сравнительная и перспективная оценка.

20 Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитасининг “Ўзбекистон рақамларда” номли статистик тўплами маълумотлари асосида ишлаб чиқилди.

boisdan bu ko'rsatkich me'yor darajasidan yuqoridaligini (ijobiy) guvohi bo'lamiz. Iqtisodiyot tarmoqlari buyicha asosiy vositalarning eskirish darajasi 2013 yilda 36,9 foizdan 2016 yilda esa 37 foizga o'sgan. Jahon tajribasiga ko'ra bu ko'rsatkich 30-35 foizdan yuqori bo'lmasligi kerak, mamlakatimizda bu ko'rsatkich me'yor darajasidan yuqorida. Shuning uchun bu ko'satkichni me'yor darajasiga keltirish kerak. Buning uchun iqtisodiyotga uzoq muddatga ilg'or fan-texnika yutuqlarini o'zida jamlagan yangi texnologiyalarni joriy etishni kengaytirishni taqozo qiladi.

Real sektor korxonalarida ishlab chiqariladigan va eksport qilinadigan tovarlarga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, bozorlarda import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketishi tashqi bozorga bog'liq bo'lган iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Bundan tashqari, bozorlarda savdo qilish yoki mahsulot etkazib beruvchi mamlakat yoki mamlakatlar guruhi tomonidan embargo kiritilishi ham iqtisodiyotning rivojiga xavf tug'diradi. Shuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdag'i mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog'liqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta'sir ko'rsatishdan foydalanishlari mumkin.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyot uchun uning eksporti tarkibida ikki-uch xil tovarning ustuvor o'rinni egallashi, xatto eksport hajmining yarimidan ko'pini tashkil etishi o'ta xavfli holatlarni tug'dirishi mumkin. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportning bunday tarkibi bunday tarkibi jahon bozori kon'yukturasi yomonlashgan sharoitda, ularga bo'lган talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokatiga olib kelishi mumkin.

Mamlakat eksport qilayotgan xom ashyo resurslarining jahon bozridagi narxlarning tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi va bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihibarining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto milliy valyuta qadrning tushib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning ba'zilari xonavayron bo'ladi, ko'pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur

bo‘ladi. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qisqarib, ishsizlar soni oshadi. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga ajratilgan mablag‘ ko‘payib, ijtimoiy muammolar ham birmuncha keskinlashadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari sekinlashadi yoki turg‘unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o‘tish o‘ta darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqozo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo‘jaligiga kirib borishi nuqtai nazaridan istiqbolli bo‘lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni himoya qilish, ya’ni selektiv proteksionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko‘plab mamlakatlar bilan yomonlashgan munosabatlar o‘rniga boshqa mamlakatlar bilan bo‘ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Butun dunyoda milliy valyuta qadri mamlakat iqtisodiy ahvolining indikatori hisoblanadi. Mamlakatdan moliyaviy mablag‘larning katta miqdorlarda chiqib ketishi, ya’ni “kapitalning qochishi” milliy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdiddir. Mablag‘larning chetga chiqib ketishining legal, ya’ni ochiqdan-ochiq yo‘li tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar hisobraqamlariga katta miqdordagi mablag‘larning o‘tkazilishi hisoblanadi. Mablag‘larning chetga chiqib ketishining noqonuniy, ya’ni yashirin yo‘llarga esa quyidagilar kiradi:

-eksport mahsulot narxining pasaytirib, importda oshirib ko‘rsatish. Bunda fiktiv va haqiqiy narx o‘rtasidagi farq xorijiy kompaniyalar tomonidan vatanimizdagи ishbilarmonning xorijiy bankdagi hisob raqamiga o‘tkaziladi;

-import uchun “avans” o‘tkaziladi, ammo import sodir bo‘lmaydi va h.k.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergen yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo‘lib qoladi. Tashqi qarzlarni to‘lash uchun mamlakat qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to‘lashni

kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi ob'ektlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mumkin.

### **1.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni iqtisodiy mexanizmlari**

Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalg etish va ulardan samarali foydalanish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta yoki takror ishlab chiqarish sur'atlari va hajmiga ta'sir qiladi, ilmiy-texnik rivojlnishni va aholining asosiy qismining band bo'lishini ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o'zgarishlar, mehnat resurslarining ratsional hamda optimal joylashtirilishi va rivojlanishi ko'p hollarda investitsion faoliyatga bog'liq.

Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustivor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi<sup>21</sup>.

Davlatning tashqi investitsiya siyosati – bu mamlakat tashqarisidagi investitsiyalar oqimini davlat tomonidan jalg qilish, boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish chora-tadbirlari tizimidir.

Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi borasidagi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu faoliyatning muhim vositalaridan biri deyishimiz mumkin. Bu siyosat mamlakatning siyosiy sohadagi asosini tashkil etadi yoki mamlakatning hoh u rivojlangan bo'lsin, hoh endi rivojlanayotgan bo'lsin siyosiy munosabatlarning o'zagi sifatida xizmat qiladi. Investitsiya siyosati davlatning moddiy

---

<sup>21</sup> Karimov N, Xojimatov R. —Investnsiyani tashkil etish va moliyalashtirish O'quv qollanma. – Toshkent.: TDIU, 2011 yil, 97 b.

ne'matlar ishlab chiqarishni tashkil etishda investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirib turuvchi vazifani bajaruvchi mexanizmidir.

Davlat siyosatining bu sohasi tashkiliy-huquqiy tomondan qaralganda, tegishli boshqaruv organlarning investitsion siyosatdagi maqsadlari va vazifalarini belgilab berib ularni amalga oshirish uchun mablag'larni qidirish faoliyatidan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarisha eng etakchi hamda muhim vazifani O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bajaradi. Unga ko'ra mamlakatdagi deyarli barcha investitsiyalarning jalg qilinishi, joriy qilinishi, boshqarilishi hamda keyingi yillar uchun istiqbolli loyihalarning ko'rsatilishi ahamiyatga molikdir. Ushbu dasturda deyarli barcha vazirliklar, qo'mitalar va boshqa davlat organlari hamda chet el tashkilotlarining loyihalari o'z o'rmini topgan. Investitsion dastur haqida O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunda aniq ta'rif berilgan va u quyidagicha ko'rinishda, O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga erishishga, mavjud tabiiy, mineral xom-ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan mamlakatning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tuzilmaviy qayta tashkil etish bo'yicha asosiy ustuvor yo'nalishlar hamda strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini o'z ichiga olgan, o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan choralar majmuidir.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiyalarni jalg qilish va oshqarishning qonunchilik asosini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish obektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqlashtiruvchi soliq tizimini qo'llash va uning yangi

- shakllarini ishlab chiqish orqali takomillashtirish;
- asosiy fondlarni tezkor su'ratlarda amortizatsiya qilish orqali yangilashni yo'lga qo'yish;
- me'yorlar, qonun-qoidalar va standartlarni belgilash orqali ularga rioyaqilinishini ta'minlash;
- monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini muntazam ravishda zamon bilan hamnafas holatda o'tkazib borish;
- tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash, yangilarini ishlab chiqib amaliyatga joriy qilish;
- investitsiya loyihamalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilab berish.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihamalarining amalga oshirilishi monitoringi ham olib boriladi.

Shu sababli xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz. Bu tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajakda samarali natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va echimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtaida muloqot tashkil qilib, mahalliy aholi va chet el mamlakatlari vakillarining mablag'larini jalb qilish mumkin. SHu asosda masalaga

keng jamoatchilik fikrini jalb qilib, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarning amaldagi mexanizmini takomillashtirish mumkin.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko‘p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta’sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini yanada jadal ravishda olib borish orqali, jahon bozori uchun zarur ko‘plab mahsulotlar va xizmatlarni olib chiqish orqali investitsiya oqimini oshirish mumkin. Bu holatni faqat investitsiyalarning o‘ziga bog‘liq qaratilib, echim izlamasdan, aholi va korxonalarining iste’mol qobiliyatini ko‘tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga iihsbatan sog‘lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida aniq, shaffof va ishonchli axborot ta’minotini yanada takomillashtirish zarur. O‘zbekiston investitsion muhitni takomillashtirish xorijiy investitsiyalarini jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni yaratish bo‘yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyasiya darajasini holatda ushlab turish, inflyasiyani loyihalarning qiymati o‘sishiga ta’sirini kamaytirib boorish talab etiladi.

Xorijiy investorlarning mablag’larini barcha uchun manfaatli jalb etishda ularning sarmoyalalarini himoyalanganligi va davlat tomonidan nazorat qilinishi to’g’risidagi kafolatlar muhim hisoblanadi.

Aks holda ular o‘z investitsiyalarini milliy iqtisodiyotimizga kiritishda iqtisodiy va moliyaviy jihatdan cho’chiydilar. Shu sababli, chet ellik sarmoyadorlarning investitsiyalarini ixtiyoriy sug’urta qilish, huquqlarining kafolatganligi, ularning mol-mulklarini xavflardan muhofaza qilinishi ta‘minlanadi. Xorijiy investorlar o‘z faoliyatları natijasida olgan foydalarini hech qanday cheklovlsiz chetga o’tkazishlari, ularni respublika hududida qayta investitsiyalashlari, yoki, ulardan o‘z istaklariga ko‘ra boshqa turli xil qonuniy maqsadlarda foydalanishlari kafolatlanadi. Shunday qulay muhit natijasida ularning faoliyatları rivojlanib taraqqiy etmoqda.

Investitsion jozibadorlikni oshirish borasida iqtisodchi olimlar quyidagi fikrlarni keltirganlar. Xususan, D.A.Ednovitskiy, V.A.Babushkin, N.A.Baturinalar investitsion jozibadorlikni investitsion tavakkalchilik bilan bog'laydilar. Ular investitsion jozibadorlik deganda Tashkilotning shunday holatini tushunadiki, bunda —kapital egasida tavakkalchilikka borish, shuningdek, pul ko'rinishida va asosiy vositalar shaklidagi investitsiyalar oqimini ta'minlash istagi paydo bo'ladi. Bu vaziyatda kapital ta'minlovchi va ma'lumot oluvchilarning ishonchi tashkilotning investitsion jozibadorlik darajasining asosiy va juda sezuvchan hosilasi hisoblanadi<sup>22</sup>.

Biroq mamlakatimizda investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish usullarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularni moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish kabi hali o'z echimini to'liq topmagan muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni xal etishda quyidagi takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning investitsion jozibadorligini oshirishda investitsiya fondlarini rivojlantirish va yangilarini yaratish;
- barcha turdag'i investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan fondlarni shakllantirish;
- tijorat banklari tomonidan subyektlarning boshlang'ich kapitalini shakllantirish va ularning investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatimizdagi investitsiyani boshqarish muammolarini hal qilishga erishish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Davlat siyosatining bu sohasi tashkiliy-huquqiy tomondan qaralganda, tegishli boshqaruv organlarning investitsion siyosatdagi maqsadlari va vazifalarini belgilab berib ularni amalga oshirish uchun mablag'larni qidirish faoliyatidan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni tartibga solish va jalg etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

---

<sup>22</sup> Д.А. Ендиновицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина и др. Анализ инвестиционной привлекательности организаций: научное издание/ М.: КНОРУС, 2010.- 376с.

1	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarini muvofiqlashtiradi:  -Investitsiya faoliyatini, birinchi navbatta xorijiy investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish;  -Davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idolar ishini tashkil etish
2	O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi	-Xorijiy xamkorlar bilan aloqalarni o'rnatish;
3	O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	-Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investorlarga kompleks yordam berishni tashkil etish;
4	Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi	Korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro'yhatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash-mamlakat va horij investorlarining investitsiya takliflari to'g'risida ma'lumotlar bankini shakllantirish  -investitsiya muxitini o'rganish;  -xorijiy investorlarga axborot va

		boshqa xizmatlar ko'rsatish
5	O'zbekiston Respublikasi xususiyashtirilgan korxonalarga komaklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi	Xususiyashtirilgan mulklarni tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish
6	Moliya vazirligi	Qarz va hukumat kafolatlarini berish
7	Adliya vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini ro'yhatga olish
8	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi	Xorij investorlariga va O'zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarga viza berish
9	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va Mamlakatimizda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarni turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish
10	O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish
11	O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki	Konvertasiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati
12	Tashqi qitisodiy faoliyat Milliy Banki	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmatlari ko'rsatish va loyihani

		moliyalashni amalga oshirish
13	“O’zbekinvest” sug’urta korxonasi va “O’zbekinvest Interneyshnl” qo’shma korxonasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiliginu sug’urtalash
14	“O’zbekinvestloyih” milliy injirining kompaniyasi	Dastlabki texnik asoslamani va investitsiya loyihalari tehnik-iqtisodiy asoslamalarini tayyorlash

### **O’zbekiston Respublikasida Chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalg qilish bo’yicha davlat tashkilotlari ro’yhati<sup>23</sup>**

O’zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo’naltirayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarini jalg etish uchun bir qator afzalliliklarga ega. O’zbekiston jahon hamjamiyati oldida o’zining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarni tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o’ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asosan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarini jalg etish masalasini milliy va iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy unsuri sifatida ko’rib chiqish lozim. Investitsiyalar belgilangan sharoitlardan kelib chiqqan holda sanoat va qishloq xo’jaligining bir qanchatarmoqlarini ko’tarishga, o’z navbatida iktisodiy holatni yaxshilanishida, natijada davlatning milliy va iktisodiy xavfsizlikni ta’minlanishida xizmat kilishi mumkin.

Investitsiyalarini jalg qilishda yangi usullardan foydalanish kun sayin ortib

---

<sup>23</sup> Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O’quv qo’llanma TDIU 2011

bormoqda. Ulardan biri bu seleng hisoblanadi. Seleng bu lizingning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Seleng bu - ikki tomonlama jarayon bo'lib, majburiyatlardan iboratdir. Aniq belgilangan to'lov evaziga ma'lum kompaniyaga mol-mulkni seleng qilishi va undan foydalanish huquqini berishi mumkin. Lekin mol-mulkni oluvchi uning egasi tomonidan birinchi so'rovning o'zida qaytarish huquqiga ega bo'ladi. Moliyalashtirish shakliga ko'ra seleng faoliyati bank faoliyatiga juda yaqin hisoblanadi.

Forfeyting termini inglizcha forfaiting va fransuzcha —a forfait – bir butun, umumiylar summa so'zidan olingan<sup>24</sup>. Forfeyting 60-yillarning boshida juda keng tarqalgan. Xom-ashyo bozorida eksportyorlar uchun kurashda raqobatni kuchaytirish ta'sirida tashqi savdoda paydo bo'lgan.

Forfeyting – bu:

1. shunday moliyalashtirish usuliki, investitsion resurslarni shakllantirishda zayom manbalaridan biridir;
2. tijorat kreditining bank kreditiga aylangan shakli. Ya'ni importyorga yo'naltirilgan bo'lib, veksellarni sotib olish orqali eksportyorni kreditlashtirishdir.

Forfeyting – bu tijorat kreditini bank kreditiga o'zgarish shaklidir. Bunda investor agar shartnoma tuzish vaqtida ma'lum obyektni sotib olish uchun zarur moliyaviy mablag'larga ega bo'lmasa, u sotuvchiga veksellar yozib beradi. Veksellarning qiymati obyektning o'z vaqtida to'lanmaganning foizlari bilan qo'shilgan qiymati, ya'ni berilgan tijorat kreditiga tengdir. Forfeyting investor uchun investitsiyalarning qimmat shaklidir. Chunki u kreditni bank orqali oladi.

Investitsion fortfeyting – tashqi savdoni kreditlashtirish shakli bo'lib, eksportyorga ma'lum ustunliklar beradi. Ularga:

- to'lanmaslik xavfidan sug'urtalanadi;
- eksportyorni debtor qarzdorlikdan ozod qiladi;

---

<sup>24</sup> <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A8%D0%BE%D0%BF%D0%BE%D0%B5%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC>

- shartnomada belgilangan hisoblash stavkasining belgilangan holatda qolishini ta‘minlaydi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, yakka hokimlikkaga qarshi erkin raqobatga ega muhit yaratish, raqobatni rag‘batlantirish va rivojlantirish, kichik va o‘rta biznes korxonalarini qo‘llab - quvvatlab turish, samarali va hamma uchun manfaatli bo‘ladigan soliq siyosatini yuritishning yo‘nalishkarini belgilab olish lozim.

### I-bob bo‘yicha xulosa

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

– Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish omili ekanligi tavsiflandi;

– Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida O‘zbekistonda tegishli huquqiy-me’yoriy asos, shart-sharoitlar yaratilganligi yoritildi.

Investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Xorijiy korxonalarning moliyaviy bo`limlari mablag`lardan qisqa muddatli investitsiyalar qatorida yuqori foyda olish maqsadida foydalanish moddiy manfaatdorlikni belgilashga olib keladi. Bunday investitsiyalar ko‘pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba`zida esa o`z qimmatbaho qog`ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog`ozlarini sotib oladi.

Chet el investorlariga davlat tomonidan kafolat beruvchi yo‘nalishlar ham mavjudki, bular quyidagilardan iborat:

- milliylashtirish va rekvizitsiyadan saqlangan holda, siyosiy xavf-xatarni sug`urta qilish;
- sub`ektlarning foyda va boshqa olgan mablag`larini chet el valyutasida chegaradan (boshqa davlatlarga) o`tkazish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda investitsiya uchun qulay muhit yaratish;
- joriy investitsiyaning keyingi holati yomonlashsa, investitsiya kiritilgan vaqtdan boshlab qabul qilingan qonunlarning uzoq muddat davomida qo`llanilishini ta`minlash;
- investorlarning huquqlari tasodifiy holatlarda buzilgan taqdirda davlat organlari orqali keltirilgan zararlarni to`lash;

## **2.Bob.Sirkechi tekstil MCHJ QKga xorijiy investitsiyalarni jalb etish**

### **xolatini baxolash**

#### **2.1 Sirkechi tekstil MCHJ XK faoliyati tavsifi va boshqaruv tuzilmasi**

O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati maxalliy xomashyoni qayta ishlashga asoslangan ko‘p asrlik tarixga ega: paxta tolasi, ipak, terichilik, kaolin kabilar mamlakatning milliy boyligi hisoblanadi. Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekiston orqali o‘tishi, bu erda ishlangan paxta va ipakli matolar xunarmandchiligi, o‘ziga xos xushbichim milliy ust bosh va oyoq kiyimlar, suratlar chizilgan sopol idishlar dunyoning ko‘plab davlatlariga mashhur bo‘lgan.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «SIRKECHI TASHTEKSTIL» xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonasi O‘zbekiston Respublikasining “Masuliyati cheklangan xamda qo’shimcha ma’suliyatli jamiyatlar to’grisida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa qonun xujjatlari asosida o’z faoliyatini amalga oshiradi.

*Jamiyatning nomi:*

O‘zbek tilida: Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «SIRKECHI TASHTEKSTIL» xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonasi. Qiskacha nomi - MCHJ «SIRKECHT TASHTEKSTIL» XK;

Rus tilida: Predpriyatie, s inostrannimi investitsiyami “Сиркечи Таштекстил” v forme obshestva s ogranicennoy otvetstvennostyu. Qisqacha nomi - IP OOO «SIRKECHI TASHTEKSTIL».

Jamiyatning manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 700100, Toshkent shaxri. Yakkasaroy tumany. Usmon Nosir-53B. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashki 1 etilgan bo’lib asossan kalava ip ishlab chiqarish bilan shug’ullanadi.

*Jamiyatning huquqiy holati:*

Jamiyat konun xujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan

paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, jamiyat qonun xujjalarda belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar, savdo uylari tuzishga xaqlidir.

Jamiyat to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan manzili ko'rsatilgan dumalok muxrga ega. Jamiyatning muxrida uning firma nomi jamiyatning ixtiyoriga binoan boshka tillarda xam ifodalanishi mumkin. Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankadariga, uz emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgisiga va boshqa o'z belgi-alomatlariga ega bo'lishga xaklidir. Jamiyat o'zining mustaqil balansida xisobga olinadigan aloxida mol-mulkka ega bo'ladi. Jamiyat konun xujjalarda taqiqlanmagan xar kanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin.

Ro'yxati konunlarda belgilanadigan ayrim faoliyat turlari bilan jamiyat faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga karashli barcha mol-mulk bilam javobgar buladi. Jamiyat uz ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidai javob bermaydi. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidai javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdak jamiyat xam davlat va uning organlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

#### *Jamiyat faoliyatini ish predmeti:*


Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi, mulkiy shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlar, shu jumladan chet el davlatlari korxonalari bilan tug'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqarini o'rnatish, xalqaro standartlar asosidagi yangi-zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish, moddiy, moliyaviy va mexnat zaxiralaridan oqilona foydalanish yo'llari bilan foyda olish. Jamiyat asosan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash, kalava-gazlama tayyorlash: trikotaj va tikuv bugamlarini eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarish: vositachilik faoliyati shu jumladan savdo-xarid va savdo vositachilik faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyat xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish.

Jamiyat konun xujjalarda taqiqlanmagan xar kanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin. Ro'yxati qonunlarda belgilanadigan ayrim faoliyat turlari bilan jamiyat faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

*Jamiyatning boshqa ruv organlari:*

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyat boshqaruvining oliv organi xisoblanadi. Jamiyatning joriy faoliyatiga raxbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosdagi ijro etuvchi organi - Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi. Bosh direktor jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga xisobdordir.

*Jamiyatning ustav fondi:*



**2.1-Rasm Jamiyatning ustav fondi<sup>25</sup>**

Jamiyatning ustav fondi 1 331 353,37 (Bir million uch yuz o'ttiz bir ming uch yuz ellik uch AQSH dollar 37 sentga) tengdir. Jamiyat ishtirokchilari jamiyat ustav fondi quyidagi ulushlarga egadirlar: «SIRKECHI TEKSTIL SANAYI VECARET A.S» kompaniyasi - 133 135.34 AQSH dollarlik (bir yuz o'ttiz uch ming bir yuz o'ttiz besh va o'ttiz to'rt sent), jamiyat ustav fondinish- 10% ulushiga tengdir;

<sup>25</sup> Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK Nizomi asosida muallif tomonida chizilgan

-Suat Sirkeji (Suat Sirkeci) - 865 379.69 AKSH dollarlik (sakkiz yuz oltmis besh ming uch yuz etmis tuqqiz va oltmis tuqqiz sent) AQSH dollari, jamiyat ustav fondining 65% ulushiga tengdir:

- «ABENAT TEKSTIL SANAYI VE DIS TICARET LIMITED SIRKETI» kompaniyasi - 332 838,34 AQSH dollarlik (uch yuz o'ttiz ikki ming sakkiz yuz o'ttiz sakkiz dollar va o'ttiz to'rt sent) AKSH dollari, jamiyat ustav fondining 25% ulushiga tengdir.

Jamiyat ishtirokchilarinikg kelishuviga ko'ra pul-kimmatli kog'ozlar, uzga ashyolar yoki mulkiy xuquqlar yoxud pul baxosiga ega bulgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga xuquqlar jamiyatning ustav fondiga qushiladigan xissalar bo'lishi mumkin.

«Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XKning mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- a) Korxona ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki kompaniyaning yangi qaroridagi ustavini tasdiqlash;
- b) Korxonani qayta tashkil qilish;
- v) Korxonani tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy moliyaviy xisobotlarni tasdiqlash;
- g) Korxona kengashining tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish;
- d) ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish;
- e) Korxona ijroiya organi rahbari – Ta'sischilar kengashi boshqaruvi a'zolarini saylash hamda direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uyushmaning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarini ta'minlanmaganligini, u tomonidan mehnat shartlarini buzilganligi uchun muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish;



## **2.2-rasm. «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasiga paxta tolasidan kalava ip ishlab chiqarish jarayoni<sup>26</sup>**

Xozirgi vaqtga kelib, dunyoda eksportni amalga oshiruvchi engil sanoat, tarmoqlar orasida yuqori reytingga ega bo‘lib turibdi. Bu soha eksport tovarlar nomenklaturasida yigirilgan ip-kalavadan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan keng tarmoqni o‘z ichiga olgan. Shu nuqtai nazardan sohaning eksport potensiali salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, uning rivojlanishnalishi mavjud strategik investor, jaxon bozoridagi tovarlar kon'yunkturasi, biznes rejaning samaradorligi, kadrlarning eksport ishlab chiqarish talablariga muvofiq kelishiga bog‘liqdir.


Korxonani boshqarishni tashkiliy strukturasi boshqaruvning asosiy negizini tashkil etadi. Chunki har qanday tashkilot tartibli ishlashi, unda mavjud intizom, bo‘g‘inlar va xodimlarning ma’suliyati, ularga hamjixatlik, hamkorlik ruhi va boshqalarning barchasi boshqarishning tashkiliy tuzilishlarini oqilona shakllantirishga bog‘liq.

Boshqarishning tashkiliy strukturasi deganda boshqaruva bo‘g‘inlarining birlashuvini, ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni hamda ulardagi maqsad va

<sup>26</sup> «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasida ish jarayoni

vazifalarning bajarilishini ta'minlash tushuniladi. Shu sababli har bir korxonani boshqaruv strukturasini tuzishi talab etiladi. Quyida «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XKning tashkiliy strukturasi berilgan. 1-Chizma





**1-Chizma. «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK markaziy apparatining tashkiliy strukturasi<sup>27</sup>**

<sup>27</sup> «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK xodimlar bo'limi ma'lumotlariga aosan mualif tomonidan chizilgan

Korxonaning har bir a'zosi o'zining mustaqil ovoziga ega va korxona faoliyatini yuksaltirishda faol ishtirok etishi ustavda aks ettirilgan.

*Korxona raxbarining aniq funksiyalari.* Xukumat qarorlarini korxona faoliyatiga izchillik bilan tadbiq etishni ta'minlash, davlat byudjeti, burtmachilar, etkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarning bajarilishiga javob berishni ta'minlash, korxona faoliyatini tashkil qilish, uni muvofiqlashtirish, nazorat qilish.

*Buxgalteriya bo'limi.* Bosh xisobchining vazifasi- pul mablag'larini to'g'ri sarflanishini nazorat qilish, xisobga olish va xisobot tuzshni uyuştirish, buxgalteriya balanslarini tuzish, xodimlarga ish xaqi to'lash bo'yicha xisob-kitob qilish, moliyaviy faoliyatini tashkil qilish, byudjet, bank, etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan xisob-kitob olib borish va x.k.

*Mahsulot sifatini nazorat qilish bo'limi* vazifalari korxonada tayyor maxsulot sifatini nazorat qilish, korxonaga keltirilgan xom ashyo va materiallar sifatini nazorat qilish, nazorat o'lchov asboblari xolatin tekshirish, mahsulotni attestatsiyadan o'tkazishga taqdim qilish va x.k.

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XK da menejer lavozimi yo'riqnomasi mavjud bo'lib, yo'riqnomada umumiy qoidalar ko'rsatilgan. Yo'riqnomada menejer rahbarlik qilish kategoriyasi mansub. Korxonada menejerni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish korxona direktori buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Menejer o'z faoliyat dorisida quyidagilarni: bozor iqtisodiyotini, tadbirkorlik va biznes yuritishni;

- bozor kon'yunkturasini, narxning shakllanishi, soliqqa tortish, marketing asoslarini;
- menejment nazariyasini, makro va mikro iqtisodiyotni, ma'muriy ish yuritishni, sug'urta, bank va moliya ishlarini;
- personal bilan ishslashning nazariy va amaliy jihatlarini;
- ishlab chiqarish texnologiyasining asosini;
- xodimlarning ishbilarmonlik sifatlarini baholash usullarini;
- mehnat qonunchiligini;


- ish yuritishni;
- mehnat xafsizligi normalari va qoidalari;
- innovatsion va investitsion faoliyat istiqbollarini bilishi kerak.

*Xodimlar bo‘limi* – xodimlar qabuli, hisobini rasmiylashtirish, mehnat daftarchasini to‘ldirish, hisoblash va saqlash, kasbiy ta’limni tashkil etish, xodimlar malakasini oshirish. Kombinatni xodimlar bilan ta’milanishi, xodimlarni rivojlantirish, motivatsiyalash va ijtimoiy ta’milanishini tashkil etish.

Zamonaviy rahbarlar yuqori malakaga ega bo‘lishi, istiqbolni ko‘ra olishi va samarali xo‘jalik yuritishga imkon yaratuvchi iqtisodiy fikr yuritish, shaxsiy intizomga ega bo‘lish, topshirilgan vazifaga javobgarlik xissi bilan yondoshish, g‘oyalarni to‘plash, chiqishimli va ishbilarmon bo‘lishlar xozirgi zamon talablari va shartlaridan biridir.

Boshqaruv fuksiyalariga keladigan bo‘lsak, korxonada boshqaruv sifatini oshirishda rejalashtirish ham muhim axamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo‘ladi, chunki u, eng avval, yuzaga keladi, shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Ana shu o‘zgarishlarni tashkilotchilik ta’minlaydi.

«Sirkechi Tashtekstil» MCHJ Xkda boshqaruv strukturasi birmuncha soda tuzilgan bo‘lib, yuqoridan pastga qarab tuzilgandir. Korxonada 198 nafar xodim faoliyat yuritadi. Asosiy qismi o’rta-maxsus ma’lumotga ega bo’lgan yosh xodimlar bo‘lib, asosan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan tarkibiy bo’linmalarda faoliyat olib borishadi.




### **2.3-rasm «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasida faoliyat yuritayotgan hodimlar soni<sup>28</sup>**

Yuqoridagi jadvalga ko'ra «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasida foliyat yuriyatotgan hodimlar soni ortib borayotganini ta'kidlash lozim. Shu biloan birga 2018-yil 1-choragida xodimlarning umumiy sonining 8.4% ni Oliy ma'lumotli xodimlar tashkil etgan bo'lsa 91.6% ni O'rta maxsus malumotli xodimlar tashkil qilmoqda.

Quyidagi rasmda Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK korxonasi hodimlarining yosh va jinsiga ko'ra tarkibi yoritilgan bo'lib, bunda 2018 yil 1-choragi bo'yicha ko'rindiki hodimlarning 78% 25 yoshgacha bo'lgan yosh kadrlar hisoblanadi. Shuningdek 2018 yil 1 choragidagi holatga ko'ra korxonada 129 nafar ayol, 69 nafar erkan xodim faoliyat yuritmoqda.(2.4-rasm)

<sup>28</sup> «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan



## **2.4-rasm «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasida faoliyat yuritayotgan hodimlar yosh va jinsiga ko'ra tarkibi<sup>29</sup>**

Yosh xodimlar asosan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lган таркеби бо'линмаларда фолијат олиб боришади. Соҳани ўуқори малякли кадрлар билан та'minlash мақсадидаги 2017-2018 о'кув юли давомидаги Тошкент давлат иқтисодиёт универститети (TDIU) Менежмент кафедраси билан hamkorlikda talabalarning amaliyot stajirovka o'tashini tashkillashtirish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan bo'lib bakalavriat talabalari hamda magistratura magistrantlari muntazam ravishda amaliyot o'tab kelmoqdalar. Shuningdek, Тошкент то'qimachilik va engil sanoati institutining (TTESI) professor-o'qituvchilarini "Sirkechi Tashtekstil" MCHJ XK korxonalarida stajirovkalar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

TTESIda iqtidorli talabalarni rag'batlantirish uchun "Sirkechi Tashtekstil" MCHJ XK томонидан турли rag'batlantiruvchi tadbirlar ham joriy etilgan. Zero, soxa muttaxasislarini Тошкент то'qimachilik va engil sanoati instituti va uni qoshidagi kasb-xunar kolleji talabalari ichidan tanlab olish an'anaga aylangan.

<sup>29</sup> «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasi ma'lumotlari asosida muallif томонидан chizilgan

## **2.2 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XKning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari taxlili.**

Mamlakatimiz so’nggi yillarda dunyodagi to’qimachilik sanoati rivojlangan davlatlar qatoridan mustaxkam o’rin egallab kelmoqda. Mazkur muvaffaqiyatlarga erishishning asosiy omili mahalliy va chet el investitsiyalarining jalb etilishi, ular asosida zamonaviy uskunalar bilan jixozlangan, eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarini tashkil etilishidir.

To‘qimachilik sanoati, O‘zbekiston iqtisodiyotida qator imkoniyatli tarmoqlardan biri bo‘lib, yurtimizni kelgusidagi jadal sur’atlar bilan rivojlanishi uchun ahamiyatli o‘ringa ega. Buning asosiy omillari quyidagilar:

- yuqori qo‘shilgan qiymat darajasiga ega, kapital mablag‘lar harakati tez amalga oshadi, uni jamlanishiga imkoniyat katta;

- tarmoq, valyuta tushimi uchun va davlat byudjetining daromad qismini shakllantiradigan, shu bilan birga davlat miqyosidagi ijtimoiy dasturlarni amalga oshiradigan asosiy manbaa hisoblanadi;


- tarmoqning sermehnatligi, aholi bandligini va daromadini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi;

- nisbatan kam kapital mablag‘ sarflanuvchi tarmoq bo‘lib, unga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining kirishiga to‘sqinlik yo‘q. Bu bilan tarmoqning rivojlanishi jadallahшиб, raqobat bozori shakllanadi va boshqa tarmoqlar bilan tarmoqlararo aloqalar orqali ish yuritiladi.

Yengilsanoat sohasi manbai hisoblanuvchi paxta tołasi ishlab chiqarish 2017-yilda biroz kamaygan bo‘lib, 951,9 ming tonna tonnani tashkil etdi va 2016-yilga nisbatan 8% kam ishlab chiqarildi.

Hozirgi kunda respublikada 6700 taga yaqin korxonalar faoliyat yuritmoqdalar. Ushbu korxonalarda paxta tołasini qayta ishlash bo‘yicha 758,9 ming tonna, ip kalava ishlab chiqarish bo‘yicha 645,1 ming tonna, gazlamalar ishlab chiqarish bo‘yicha

1 014,3 mln.kv.metr va trikotaj mato bo'yicha 224,2 ming tonna va tayyor mahsulotlar bo'yicha 1 049,8 mln.dona ishlab chiqarish quvvatlari mavjud.



## **2.5-rasm. “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XK mavjud quvvatlardan foydalanish va ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi<sup>30</sup>**

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turiptki, 2017 yilda mavjud quvvatlardan foydalanishning umumiy darajasi 90,1 % tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 26.1% ga o'sdi. Ishlab chiqarilgan tayyor maxsulot xajmi xam muttasil ravishda o'sishni ko'rsatib 2017-yilda 130% ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida ip kalava bo'yicha 95,5 %ni, tashkil etgan.

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XK korxonasida 2017 yilda **65.5** mlrd.so'mlik kalava ip mahsulotlari ishlab chiqarilib o'sish sur'ati 120 %ni tashkil etgan.

<sup>30</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma'lumotlaridan

**2016-2017 yillarda «Sirkechi tekstil» MCHJ XK da ishlab  
chiqarish hajmi ko‘rsatkichlari<sup>31</sup>**

	<b>Mahsulot nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>2016 yil</b>	<b>2017 yil</b>	<b>O‘sish sur’ati 2016 y. nisbatan %</b>
	<b>Sanoat mahsulotlari xajmi</b>	mlrd so‘m	<b>50,3</b>	<b>65,5</b>	<b>124%</b>
	<i>shu jumladan</i>				
1.	Kalava ip	ming tonna	2,2	2.9	130%
2.	Paxta tolasini qayta ishslash darajasi	%	50,1	53,0	104%
3.	Shu jumladan qo‘shimcha qiymatli mahsulot	mln.doll.	365,1	400.7	109,8
4.	Yaratiladigan ish o‘rinlari	birlik	45	50	110%

2017 yilning yanvar – dekabr oylari natijalariga ko‘ra, «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasi tomonidan, 65,5 mlrd. so‘mlik kalava ip mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Respublikamiz rahbari tomonidan chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun yaratilgan qulay sharoitlar va qo‘llab-quvvatlashlar tufayli to‘qimachilik tarmog‘ining saloxiyati yuksalmoqda. «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK korxonasi tomonidan jalb qilingan investitsiyalar yengilsanoat soxasida dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri bo‘lmish Turkiya davlatidan jalb qilingan bo‘lib, yevropa sifatidagi maxsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

<sup>31</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma’lumotlaridan

«Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK hisobotlari bo'yicha Respublikada paxta tolasini o'zlashtirilishi 2018 yilda 3 ming tonna o'zlashtirilish kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2018-yildagi investitsiya dasturiga ko'ra korxona yangi turdag'i texnika texnologiyalarni sotib olib ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Muvaffaqiyatlarga erishishning asosiy omili mahalliy va chet el investitsiyalarining jalg' etilishi, ular asosida zamonaviy uskunalar bilan jixozlangan, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarini tashkil etilishidir.

Ushbu ko'rsatkich kompaniyaning o'z maxsulotini sotishdan tushgan daromaddir. Kompaniyaning sof foyda miqdori ko'payishi kuzatilmoqda 2017 yilda kompaniya bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan 15 % ga o'sishi kuzatilib, 2,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Kompaniyaning joriy yilda olgan yalpi foyda miqdori 14 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2 mlrd. so'mga kamaygan.

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ xorijiy korxonasida 2017 yilda bo'lgan 1,5 mlrd. so'm miqdoridagi debitorlik qarzlari summasi miqdori 2016 yilga nisbatan 3,8 % ga yoki 57 mln. so'mga qisqargan. SHu bilan birgalikda, o'rganilayotgan davrda muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasi 2016 yilga nisbatan 12 % ga oshgan yoki 105 mln. so'mni tashkil etgan.

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ xorijiy korxonasi bo'yicha umuman 2017 yilda 2016 yilga nisbatan kreditorlik qarzlari summasi 8,6 % ga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich joriy yilda 2,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. SHu bilan birgalikda, o'rganilayotgan davrda muddati o'tgan kreditorlik qarzlari summasi 2016 yilga nisbatan 18 % ga kamaygan yoki 116 mln. so'mni tashkil etgan.

## 2.2- jadval

### “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ xorijiy korxonasi asosiy moliyaviy faoliyati ko‘rsatkichlari<sup>32</sup>

Ko‘rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017yil	2016 y- ga nisbatan 2017 y- da, %	Ko‘rsatkich o‘zgarishi (+),(-) mlrd. so‘m
Sotishdan olingan sof tushum (daromad)	39	48	54,6	65,5	120	+ 10,9
Yalpi foyda	11,5	10,6	16	14	87,5	- 2
Sof foyda (+), Zarar (-)	-0,4	3.8	2,2	2,5	115	+ 0,3
Debitor qarzlari jumladan: muddat o‘tgan	2,9  0,46	2,3  0,34	1,557  0,09375	1,5  0,105	96  112	- 0,057  + 0,01125
Kreditor qarzlari jumladan: muddat o‘tgan	2,7  0,61	2,15  0,38	2,39  0,141	2,2  0,116	92  82	- 0,1892  -,025

Bugungi kunda o‘z ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirayotgan “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ qo‘shma korxonasi tarmoqda kelajagi porloq xisoblanib, qiyin

<sup>32</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma’lumotlari umumlashtirilib muallif tomonidan tayyorlangan

sharoitlarda ham ishlab chiqarish xajmini yanada kengaytirmoqda va tashqi savdo xajmini oshirib borishi bilan birga o’z maxsulotlari uchun yangi bozorlarni izlamoqda.

Quyidagi jadvalda bozor sharoitlariga moslanuvchanlik darajasini tavsiflovchi ushbu korxonalar asosiy (ko‘rsatkichlar) maxsulotlar ishlab chiqarish va uni sotish ko‘rsatkichlar dinamikasi keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hisobot davri davomida “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ qo‘shma korxonasida keltirilgan nomenklaturadagi maxsulot turlarini ishlab chiqarish xajmi pasaygan, ammo oxirgi ikki yilda sekinlashishi kuzatilgan.

### **2.3-jadval**

#### **“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ xorijiy korxonasining 2016-2017 yillarda ishlab chiqargan mahsulotlar nomenklaturasি<sup>33</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Mahsulot nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Qo‘shimcha quvvatlar</b>	<b>Loyihalarning umumiyligi (mln. doll.)</b>
1.	Kalava ip	ming tn.	142,6	233,2
2.	Trikotaj mato	ming tn.	23,4	41,4
3.	Tayyor mahsulotlar	mln.dona	166,3	63,5
	Jami			338.1


Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2017 yilning dekabr oyida Sirkechi Tashtekstil MCHJ xorijiy korxona maqomini oldi va to‘qimachilik sanoatini va o’z faoliyatini yanada rivojlantirishning 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan dasturi tasdiqlangan. Shunga ko‘ra Sirkechi Tashtekstil MCHJ xorijiy korxonasining kelgusidagi iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash belgilab olingen.

<sup>33</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma’lumotlaridan

## **2.3 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK faoliyatiga xorij investitsiyalarni jalb etish taxlili**

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar etakchi rol o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarning kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Sirkechi Tashtekstil MCHJ XK faoliyatiga xorij investitsiyalarni xususan to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan investitsiyalarni jalb qilish orqali korxona o'z faoliyatini yanada rivojlantirishni ko'zlagan bo'lib unda yangi ishlab chiqarish binolari va yangi liniyalar sotib olish, yangi turdag'i tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishiga erishmoqchi. Korxonaning investitsiya dasturi shakllantirilgan bo'lib uni amalga oshirish maqsadida Yo'l xaritasi belgilab olingan.




**2.6-rasm. “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori<sup>34</sup>**

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XK ishtirokchilarining 2017-yil 29-dekabrdagi umumiylig'ishida tasdiqlangan nizomga ko'ra “Sirkechi tekstil” MCHJ xorijiy investitsiya ishtirokidagi “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKga aylantirilgan. 2017-yilda

<sup>34</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan

jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorij investitsiyalari hajmi 50.000.000 so'mni tashkil qiladi. 2018-yilda korxona investitsiya dasturiga ko'ra 470.000.000 so'm va 125.000 \$ (AQSh dollari) miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kirgazishni rejada belgilab olingan.

Investitsiya kirgizish prognoziga ko'ra yangi 200 ga yaqin ish o'rirlari yaratilishi hamda tayyor mahsulot yaratishga ko'proq e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan.




**2.7-rasm. “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKga 2017 yilda kiritilgan investitsiyalar miqdori<sup>35</sup> (mln.so'm)**

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKga 2017 yilda kirgazilgan investitsiyalar salmog'ini tahlil qiladigan bo'lsak:- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar -50.000.000 so'm, Turkiya jumxuriyati va turli moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz mablag'lari 468.000.000 so'm hamda olingan Bank kreditlari 800.000.000 so'mni tashkil qildi.

“Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKning 2018-yilga investitsiyalar dasturiga muvofiq xorij korhonasiga 470.000.000 so'm va 125.000 Aqsh dollari to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kirgazilishi bilan birga, ta'sischi bo'lmish Suat Sirkeji xorij

<sup>35</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan

korxonasi rivojlantirish fondidan 500.000 Aqsh dollari miqdorida moddiy yordam mablag’lari olinishi ko’zda tutilgan. Quyidagi jadvalda 2018 yilda jalg qilinishi kerak bo’lgan investitsiyalarni yo’naltirish smetasi namoyon bo’ladi:



## **2.8-rasm. “Sirkechi Tashtekstil” MCHJ XKga 2018 yilgi investitsiya dasturiga kiritilgan mablag’lar taqsimoti<sup>36</sup> (mln.so’m)**


Yuqoridagi jadvalga ko’ra kirgizilishi kerek bo’lgan investitsiyalardan:

- Ishlab chiqarishni rivojlantirishga 100.000.000 so’m,
- Ta'mirlash va texnik qayta qurollantirishga 120.000.000 so’m,
- Mahsulotni yangilash, modernizatsiyalash va yangi resurslarni o'zlashtirishga 755.000.000 so’m,
- Mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash va texnika xavfsizligi darajasini oshirishga 75.000.000 so’m,
- Ishlab chiqarishni kengaytirishga 445.000.000 so’m ajratish ko’zda tutilgan.

“Sirkechi Tashtekstil” xorijiy korxonasi so’nggi yillarda investitsion kreditlarni ham o’zlashtirib kelmoqda. Xususan korxona Asaka bank Toshkent shaxar filliali mijozlari

<sup>36</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan

bo'lib bank tomonidan ko'rsatilayotgan qulay hamda imtiyozli kreditlardan foydalanib ketayotir. Quyida korxonaning investitsion kreditlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini dinamikasini ko'rishingiz mumkin.(2.9-rasm)



**2.9-rasm. Investitsion kreditlarni o'zlashtirish dinamikasi<sup>37</sup>**

Korxonani Investitsion kreditlarni o'zlashtirish dinamikasiga nazar solsak, korxona 2016-yilda 250.000.000 so'mni, 2017-yilda 800.000.000 so'm ko'rinishidagi kreditni o'zlashtirgan bo'lsa, 2018-yildagi investitsion dasturga ko'ra 1015 mln so'm ko'rinishidagi investitsion kredit olinishi rejalashtirilgan.

## **II-bob bo'yicha xulosa**

Iqtisodiyotimizga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish, bugungi kunda, shubhasiz yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasida o'ziga xos mablag' manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masalaga keng miqyosda e'tibor qaratilib, sanoatni rivojlantirishga hususan daromadli soxa bo'lmish to'qimachilik soxasini kamol topishi uchun bir qancha

<sup>37</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan

qulayliklar yaratilib berilayotganligini hamda borada bir qator qaror va farmonlarning hayotga tadbiq qilinayotganligi, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalg qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalg qilib xorjiy korxonalar tashkil etilayotgani yuqorida fikrimizning asosi bo'lib hizmat qiladi. Korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashi va investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan yirik investitsiya loyihamalarini moliyalashtirishda qo'l keladi.

Sirkechi Tashtekstil MCHJ xam 2017-yil oxiridan buyon xorijiy korxona ma'qomini oldi va o'z faoliyatini kengaytirib bormoqda. Korxona asosan kalava ip ishlab chiqarishi bilan birga paxtani qayta ishlash va sifatli ip mahsulotlarini eksport qilish bilan ham shug'ullanadi. Korxona tomonidan quyidagi turdag'i ip mahsulotlari ishlab chiqariladi:

- *Pnevmatik-yigiruv trikotaj yoki to'qima, Ne6/1(Nm10) dan Ne32/1(Nm54/1) gacha bo'lgan kalava ip.*

*-Xalqa-yigiruv kardli trikotaj yoki to'qima, Ne12/1(Nm20/1) dan Ne40/1 (Nm68/1) gacha bo'lgan kalava ip.*

*-Tarashli trikotaj yoki to'qima, Ne20/1(Nm34/1) dan Ne20/1(Nm34/1) gacha bo'lgan kalava ip.*

Korxonaning iqtisodiy-moliaviy axvoli barqaror o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Xususan 2017-yilda ham ishlab chiqarish xajmi ortdi va yangi 50 ta ish o'rnlari ochilishiga imkon berib yoshlarni ayniqsa, kasb-hunar kolleji o'quvchilarini ish bilan ta'minlashga olib kelmoqda . Fikrimizcha, mazkur korxona faol investitsiya faoliyatini amalga oshirishi orqali tarmoqdagi yetakchhi korxonalar safiga chiqishi hamda tayyor mahsulotlar yetkazib berish orqali yurtimiz va xalqaro bozorlarda o'z o'rmini egallashi mumkin.

### **3. Bob. Sirkechi Tashtekstil MCHJ QKga xorijiy investitsiyalarni jalg etish va uni samaradorligini oshirish yo‘nalishlari**

#### **3.1 Sirkechi Tashtekstil MCHJ XKda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish usullari**

Investitsiya faoliyati har qanday tizimda ham mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganlik darajasini ifoda etadi. Iqtisodiyotni investitsiyalashga jalg etilayotgan mablag‘lar, xususan, xorijiy kapitalining salmog‘iga qarab mamlakatning iqtisodiy qudratiga baho berish mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalg etish hisobiga qurilgan korxonalarda import o‘rnini qoplovchi va eksportga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarish uchun imkoniyat yaratiladi.

Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muxitini juda qulay tashkil etilganligi investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihamalarini tuzishga va qo’shma hamda xorijiy korxonalar tashkil etilishiga asos bo’lmoqda. Bundan tashqari jalg etilgan investitsiya va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona ta’riflari bo'yicha imtiyozlar, turli xildagi imtiyozli bojxona yo'laklarining ishga tushishi bilan qabul qilinayotgan qonunlar ishlay boshlaganidan dalolat beradi.


Sirkechi Tashtekstil xorijiy korxonasi investitsiyalardan samarali foydalanish ularni to’g’ri yo’nnaltirish uchun o’zining investitsiya dasturini ishlab chiqqan bo’lib unda tuzilmaviy investitsiya siyosatiga xos bo’lgan yangi tarmoqlarni tashkil qilish va rivojlantirish, yangi turdagи tayyor maxsulotlarni ishlab chiqarish, yangi iste’mol bozorlarini egallash kabi yo’nalishlar mavjud bo’lib ular quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- Eskirgan ishlab chiqarish liniyalarini asta-sekin muomiladan chiqarib tashlash;
- Ishlab chiqarishni tashkil etishda to’liq mahalliq hom-ashyodan foydalanish;
- To’lov qobiliyatiga ega bo’lgan talabga mos maxsulotlar ishlab chiqarish;
- Ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-tehnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta’minlash;
- Ekologik toza va xavfsiz maxsulotlar ishlab chiqarish;

- Samarali raqobatga ega tayyor maxsulot ishlab chiqarishda intellectual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;
- Iqtisodiy rivojlangan yangi tarmoqlarni barpo etish;
- Aholining ayniqsa yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash;
- Korxona faoliyatida ijtimoiy infratuzilmani to'liq shakllantirish
- Korxonada investitsiyalardan samarali foydalanish usullari quyidagilar:
- Ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish.

Sirkechi Tashtekstil xorijiy korxonasi investitsiyalardan samarali foydalanish uchun korxona faoliyatiga innovatsiyalarni muttasil jalb qilish talab qilinadi. Chunki mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

2017 yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 45,9 foizi (18,0 mln.so'm) takilotning o'z mablag'lari hisobidan, 12,2 foizi (31,9 mln.so'm) xorijiy kapital, 6,1 foizi (15,3 mln.so'm) tijorat banklari kreditlari, 35,7 foizi (9,1 mln.so'm) boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan.



### **3.1-rasm. Sirkechi Tashtekstil mchj xk da 2017 yilda investitsion-moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar<sup>38</sup>**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda Sirkechi tekstil MCHJ XK da xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo‘lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minalash imkonini yaratadi;
- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minalaydi;
- to‘rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya’ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chikarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni Sirkechi tekstil MCHJ XK ga yanada kengroq miqiyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o‘z mablag‘larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko‘rilgan zararlarning qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so‘mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o‘tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;

<sup>38</sup> «Sirkechi Tash Tekstil» MCHJ XK ma’lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan

- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o‘zlarini xavf-xatarlardan sug‘urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi bo‘ladi. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya’ni, karz va kredit) hamda bevosita va portfel investitsiyalarga bo‘linadi. Investitsiyalar nimaga yo‘naltirilganligi ular kaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo‘shma korxonalarda o‘z hissasi bilan qatnashib, xorijiy investorlarga to‘liq tegishli bo‘lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olishi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bulishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin.

Sirkechi tekstil MCHJ XK da xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta’siri ostida olib borilishi);
- ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;
- jahon iqtisodiyotining transmilliy lashtirilishi o‘sib borishi (AQSH Transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining maxsulot ishlab chiqarish hajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortikdir);
- ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

➤ xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi va hokazo.

2) siyosiy omillar:

➤ kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy xududlar (EIX), offshor hududlari va h.k.);

➤ rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

➤ iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiy lashtirish, xususiy sektor va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

➤ bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va h.k.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lida investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarini qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. SHu jihatdan davlat o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda. Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir.

- Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatalishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui.

- Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

- ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta’minlash;

- mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va uni kuchaytirish;

- samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish sohasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg‘unlashtirish;

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

- aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

- hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to‘liq shakllantirish

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy sub’ektlar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalg etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitining juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, jalg etilgan xorij investitsiyalari va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona ta’riflari bo‘yicha imtiyozlar, zaem va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o‘nlab qonuniy hujjatlar amal qilmoqda. Jumladan, xususiy investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga yanada jalg qilish maqsadida 2005 yil 11 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga binoan sanoatning alohida sohalaridagi korxonalar asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mulk solig‘i ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, ekologiya solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalarga solinadigan yagona soliq, shuningdek investitsiya miqdoriga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatda respublika yo‘l jamg‘armasi ajratmalardan ozod qilindi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish siyosati mavjud mablag‘lar, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli risklar, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirish va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishi, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni, ko‘proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalg qilish hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya’ni:

ulushi qo‘shilib qatnashishi orqali qo‘shimcha korxonalarini tashkil etish; 100% mol - mulk xorijiy investorlarga tegishli bo‘lgan xorijiy korxonalarini tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu’ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; konsessiya va lizing shartnomalari tuzish; tenderlar e’lon qilish; erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalg qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo‘shma korxonalarini tashkil etishdir.

Xulosa shuki, davlat tuzilmaviy investitsiya siyosati joylarda, qishloqlarda amalga oshirishda gaz, suv, elektr, kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash davlat imtiyozlari asosida kichik korxonalar tashkil etish zarur. CHunki shu yo‘l bilangina qishloqlardan korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalg etish mumkin.

Fikrimizcha, engil sanoat tarmog‘iga investitsiyalarni jalg qilishni amalga oshirish uchun iqtisodiy xarakterdagi boshqa rag‘batlantiruvchi omillar ham mavjuddir. Bular avvalo: ulkan xomashyo boyliklari, asosan, yuqori sifatli paxta tolasining mavjudligi; energiya tarmog‘i narxining pastligi; malakali va nisbatan qimmat bo‘limgan mehnat resurslarining mavjudligi; kommunikatsiyaning rivojlangan tarmog‘i; xizmatlarning bank va huquqiy tarmoqlari; mintaqadagi tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida kalava va yarimfabrikatlarni sotuvchi katta va o‘zlashtirilmagan bozorlarning mavjudligi kabilardir.

### **3.2. Sirkechi tekstil MCHJ XK ga jalg qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llari**

Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U saraflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Xorijiy investitsiyalarning Sirkechi tekstil MCHJ XKda iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo‘jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko‘proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo‘qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo‘qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo‘srimcha kapital qo‘yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba’zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag‘lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

**birinchisi** - kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

**ikkinchisi** - mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo‘srimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

*Birinchi vazifaning echimi* mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko‘zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobililik asosida tanlagandan so‘ng birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta’minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar tayyorlashishlari amalga oshiriladi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko‘p holarda yangi korxona, sexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya’ni ma’lum bir hududda, er maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi:

**1) Sof diskontlangan daromad** (SDD) - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig‘indisining boshlang‘ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$СДД = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu erda:

$N_t$  – hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar;

$X_t$  – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E - diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsienti* ( $d_t$ ) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalilanadi:

$$d_t = \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu erda:

$t$  - natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) - boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdag'i loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsienti ( $d_t$ ) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu erda:

$E_k$  – k-yildagi diskont normasi;

$t$ - hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste’mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo‘lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo‘lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo‘lgan xoldagi diskont normasi ( $E_{ich}$ ), ya’ni  $E_{ich}$  (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E_{uu})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1+E_{uu})^t}$$

*Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investoring kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo‘lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.*

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati ( $T_i$ ) - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo‘lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_u = \frac{I_c}{I_m}$$

Bu erda:

$I_s$  – soj investitsiyalar;

$P_m$  – loyiha keltiruvchi o‘rtacha yillik pul mablag‘lari oqimi, so‘m.

SHu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadliligi ko‘rsatkichi hisoblanmaydi. SHu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo‘yilma)ga nisbatan daromadlilik ko‘rsatkichi orqali ko‘rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathcal{D}_u = \frac{M_n}{K} \times 100$$

Bu erda:

$D_u$  – investitsiyalar daromadi, % da;

$M_n$  – soliqlar to‘langandan so‘ng qolgan foyda, so‘m;

K - investitsiyalar (boshlang‘ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

\*ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo‘lgan talab qanday;

\*kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;

\*raqobatchilik faoliyati qanday;

\*qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;

\*yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi holatida*, ya’ni mablag‘larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi qo‘sishimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\varTheta = \frac{(\mathcal{R}M_1 - \mathcal{R}M_0)}{I_k}$$

Bu erda:

E –investitsiyalar samaradorligi;

$\mathcal{YAM}_0$ ,  $\mathcal{YAM}_1$  – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

$I_k$  – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b)investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi:

$$\varTheta = \frac{Q(TH_0 - TH_1)}{I_k}$$

Bu erda:

$TN_0$ ,  $TN_1$  - mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

$Q$  – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birl.

v)investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$\varTheta = \frac{Q(M_0 - M_1)}{I_o}$$

Bu erda:

$M_0$ ,  $M_1$  – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng

g)investitsiyalarning har bir so'miga foydani oshirish:

$$\varTheta = \frac{Q(\Phi_1 - \Phi_0)}{H_\partial}$$

Bu erda:

$F_0$ ,  $F_1$  – mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi foyda, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng.

e) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruva darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natiasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Amaliyotda ko'pincha investitsion qarorlarning turli xil variantlari ko'rib chiqilib, ulardan eng maqbulini tanlab olishga harakat qilinadi. Bu maqsadda kapital qo'yilmalarning solishtirma iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qo'llanib, ular quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_n q TN + E_n \times K \longrightarrow \min$$

Bu erda:

$TN$  - mahsulot tannarxi;

$K$  - kapital qo'yilmalar;

$E_n$  - kapital qo'yilmalarning samaradorlik normasi.

Agar investitsion qarorlarning bir nechta variantlari ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, keltirilgan xarajatlar eng minimal bo‘lgan variant tanlab olinadi.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} \neq K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu erda:

K - asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo‘yilmalar hajmi;

$F_{r1}$ - rejorashtirilayotgan davming so‘nggi yilidagi foyda;

$F_{r0}$  - bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davning so‘nggi yili).

Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik koeffitsienti qoplanish mudatiga teskari bo‘lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E \neq (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samaradorligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. SHu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali bo‘ladi. +urilgan ob’ektni muddatidan avval foydalanishga topshirishdan olinuvchi qo‘shimcha foyda ( $E_{kf}$ ) orqali iqtisodiy samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_{kf} \neq E_n F (T_{sh} - T_a)$$

Bu erda:

$E_n$  - samaradorlikning normativ koeffitsienti;

F - muddatidan avval foydalanishga topshiriluvchi asosiy fondlar qiymati;

$T_{sh}$  - ob'ektni foydalanishga topshirishning shartnomadagi muddati;

$T_a$  - ob'ektni foydalanishga topshirishning amaldagi muddati.

Ob'ektlarni foydalanishga topshirishning shartnomadagi va amaldagi muddatlari o'rtasidagi farq mazkur formulada ( $T_{sh} - T_a$ ) yil ulushida aks ettirilishi lozim (vaqt ko'rsatkichi). Agar  $T_{sh} < T_a$  bo'lsa, ya'ni ob'ektni foydalanishga topshirish muddati o'tib ketadigan bo'lsa, investor kutilayotgan foydani olishdan mahrum bo'ladi va boshqa chiqimlarga duch kelib, bu narsa hisobiy samaraning salbiy bo'lishiga olib keladi. Shu sababli qurilish yoki korxonani qayta tiklash va kengaytirish ishlari, ob'ektlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik tez amalga oshirilsa, investitsiyalar samaradorligi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi.

### **III bob bo'yicha xulosa**

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, to'qimachilik soxasini rivojlantirish va boshqarishda investitsiyalarni jalb etish yuqori samaraga erishishga olib kelar ekan. Soxani rivojlantirish maqsadida ayniqsa AQSH, Germaniya, Janubay Koriya, Yaponiya kabi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'ziga xos yo`nalishlaridan kelib chiqib, investitsion vaziyatni jadallashtirish uchun quyidagi shartlarga e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz. Demak takliflarimiz quyidagicha:

-xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga bir xil imkoniyat, imtiyozlar yaratish;

-milliy buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobi standartlariga yanada yaqinlashtirish;

-qo'shma korxonalarni tashqi bozorlarga yo'naltirilgan faoliyatini jadallashtirish, valyuta oqimini barqarorlashtirish. Bunga rag`batlantirish uchun turli xil kommunal xizmatlardan qisman ozod etish va soliq, yig'im, bojxona to'lovlaridan to`liq ozod etish orqali erishish;

-investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darjasini bo`yicha 3 guruhga bo`lib, sust rivojlangan regionlarga investorlar uchun ko`proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;

-erkin eksport zonalari amaliyotini o`rganish va ularni yurtimizda joriy qilishga erishish.

- bozor iqtisodiyoti tizimga xos bo`lgan inflyatsiya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi barcha holatlarning oldini olish (bu investorning real oladigan foydasini ko`paytiradi);

- davlatimiz boshqaruvi tomonidan imkon darajasida elektr energiya resurslariga bo`lgan baholarni muvofiqlashtirish;

- viloyatda kapital qo`yilmalar tuzilishida ro`y beradigan salbiy o`zgarishlarning oldini olish, aks holda, ularning jamiyat uchun yalpi foydaliligi oshsa, mahsulot ishlab chiqarish kuchayishi ro`y bermaydi. Bunga misol: ishlab chiqarishga davlatning aralashuvi kengayishi bilan korxonalar o`z mablag`larining bir qismini atrof-muhit va sog`likni sarflashga majbur bo`lishidir;

- transport va aloqa kommunikatsiyasi sohasidagi muammolarni hal etish, chunki qulay rivojlangan transport va aloqa tizimisiz respublikaning iqtisodiy salohiyatini to`la aks ettirib bo`lmaydi;

- respublika miqyosida aholining siyosiy va ma`naviy madaniyatini yanada oshirish;

- iqtisodiy munosabat o`rnatgan har ikki (investor va uning kapitalidan foydalanuvchi) mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish va o`zaro qo`llab-quvvatlashni yo`lga qo`yib, samarali hamkorlikni kuchaytirish.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xorijiy investitsiyalar davlat va korxonalarning asosiy fondlarni zamonaviylashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlash yo`lidagi faoliyatining muhim vositadir. To`qimachilik va yengilsanoatni rivojlantirish uchun ham investitsiyalarni qo`llash ancha samara beradi. Ayniqsa, biz kabi iqtisodiyoti bozor tizimiga asoslanayotgan davlatlar uchun bu juda muhimdir. Bozor iqtisodiyoti va unga o`tish davrida shakllangan turli mulkchilikni joriy etish va ulardan foydalanish doirasida samaraga erishi maqsadida investitsiyalarni qo`llash ayniqsa muhimdir.

Biroq, tanqidiy tahlil qiladgan bo`lsak, respublikada investitsiyalar bilan bog`liq muammolar mavjud, ularni hal qilish O`zbekistonni yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolar quyidagicha:

- infrastrukturani sust rivojlanganligi;
- O`zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini jahon OAVlarida reklamasini kamligi;
- investitsiyalarni viloyatlararo taqsimotida yuqori differentsiyalashganligi.

Investitsiyalar qoidaga ko`ra, amaliyotda mamlakat miqyosida davlat tomonidan, mikroiqtisodiyotda esa korxonalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xo`jalik sub`ektlari tomonidan amalga oshiriluvchi ivesitsion siyosat asosida moddiylashtiriladi.

Investitsiyalar real, yalpi, moliyaviy va portfel turlariga taqsimланади. Real investitsiyalar korxonaning iqtisodiy potentsialini yaxshilashda muhim vosita hisobланади.

Sirkechi Tashtekstil mchj xk da xorijiy investitsiyalarni jalb etish va yuqori daromadli maxsulotlar ishlab chiqarishi uchun quyidagi takliflarni amaliyotga tadbiq etish joiz deb xisoblayman:

- To'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan investitsiyalar oqimini ko'paytirish;
- Yevropaning boshqa mamlakatlariga tayyor maxsulot eksport qilishni yo'lga qo'yish;
- Ishlab chiqarishni tashkil etishda samaradorlikni oshiruvchi xorij tajribasidan foydalanish;
- Maxsulot tannarxini va soliqlardan imtiyoz olish uchun erkin iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- Maxalliy kadrlarni o'qitish va qayta o'qitish;
- Yangi samaradorligi baland bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlarini sotib olish.
  
- Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Evropa Itifoqi davlatlarida qo'llanilib kelayotgan boj to'lovlarini kamaytirish yoxud mutloq olib tashlash bo'yicha Tashqi ishlar va Tashqi savdo vazirliklari tamonidan mazkur davlatlari bilan tegishli konsultatsiya va muzokaralar olib borish taklif etiladi;
- Chegaradosh xududlarda qo'shni davlatlar bilan savdo aylanmasini oshirish maqsadida xorijiy fuqarolarga tijorat banklarida xususiy xisob rakamlarini ochilishiga va ushbu raqamlardan maxalliy korxonalar bilan xoxlagan valyutada xisob-kitob yuritish bo'yicha ruxsat berilishi taklif etiladi

«Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XKda eksport qilishni qayta yo'lga qo'yish doirasida Janubiy Koreya, Hindiston, Germaniya, Italiya, SHveysariya, Turkiya, shuningdek, MDH va Boltiq bo'yi mamlakatlari bilan doimiy ish olib boriladi. Kompaniya korxonalari ishlab chiqarilgan mahsulot uchun xaridchlarni jalg qilish maqsadida xalqaro ko'rgazmalar ishida muntazam ishtirok etadi. Kompaniya korxonalarining xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishi ularning raqobatbardoshligi va turli mamlakatlarga, shu jumladan, EI mamlakatlariga tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari eksport qilish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi.

Imkoniyati bor sarmoyadorlarni jalg etish maqsadida «Sirkechi Tashtekstil» MCHJ XK vakillari turli mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro biznes-forumlarda ishtirok etmoqda. Masalan, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya va Malayziyada

«O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoatining investitsiya salohiyati» taqdimoti o‘tkazilganda ishtirok etganlar.

Xulosa qilib aytganda, butungi kunda O‘zbekiston engil sanoati dadil qadamlar bilan taraqqiyot sari intilmoqda. Buning uchun mamlakatimizda barcha tabiy zaxiralar: paxta, pilla, jun xomashyosi etarli. Eng muhim, sohani rivojlantirishga xukumatimiz tomonidan malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida" 1998 yil 30 apreldagi Qonuni. № 609-1; //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6сон.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida" 1998 yil 30 apreldagi Qonuni. № 609-1; //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6сон.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iktisodiy faoliyati to'g'risida"gi 2000 yil 26 maydagi Qonuni. 77-II-son (yangi tahriri); //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6сон.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida" 2003 yil 11 dekabrdagi Qonuni. 558-II-son; //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2сон.
6. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya faoliyati to'g'risida" 2014yil 9 dekabrdagi Qonuni. 380-son (yangi tahrir). //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 50-son, 587-modda

### **II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari.**

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta'minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2016 yil 22 fevraldag'i PQ-2495-sonli Qarori.// lex.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududiy davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" gi 2016 yil 24 fevraldag'i PQ-2497-sonli Qarori.// lex.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yunalishlari to'g'risida" 2010 yil 21

dekabrdagi PQ-1442-sonli Qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 50-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 15-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil Investitsiya Dasturi to‘g‘risida” 2015 yil noyabrdagi PQ-2264-sonli qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 12-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy qayta shakllantirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2015 yil 4 martdagi PF-4707-sonli Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 3-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 15-son, 167-modda; 2013 y., 12-son, 150-modda.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jizzax viloyati tadbirkorlari bilan suxbati. 24.03.2018 xalq so’zi №36

15. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni 7.02.2017 yil.<http://press-service.uz/uz/document/5482/>.

#### **IV. Asosiy adabiyotlar**

16. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Muminov N.G. “Xorijiy investitsiyalar”-T “Moliya”, 2010 y.

17. Zubchenko JI.A. «Inostrannye investitsii», Moskva, «Knigodel», 2006

18. KarimovN.G‘., XojimatovR.X.. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. –T.: TDIU, 2011. -801 b.

19. Kuzieva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo’llari. Monografiya. T.: 2006.

20. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: Shark, 2007.
21. Sarev V.V. Otsenka ekonomiceskoy effektivnosti investitsiy. - SPb.: Piter, 2008. - 482 s.
22. Shodiev R.X. "Jahon iqtisodiyoti". - T.: "G'ofur G'ulom", 2005.
23. Yuldashev R.Z. Investitsionnoe obespechenie privatizirovannykh predpriyatiy v Uzbekistane: upravlencheskiy aspekt. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2009. - 93S.
- V. Qo'shimcha adabiyotlar**
24. Bekmurodov A.SH., Karrieva YA.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 166 b.
25. Inostrannye investitsii v Rossii. – V kn.: Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya: pod.red. E.F.Julova.-M., 2004.-s.67.Tuxliev N.,
26. Inostrannye investitsii. V kn.: L.N.Pavlova. Finansy predpriyatiy.- M.,2004.-s.171.
27. Proxojev A, Kornilov M. O probleme kriteriev i otsenok ekonomiceskoy bezopasnosti // ObЩestvo i ekonomika, № 4-5, 2003. -s. 233.
28. Rafiev A.A. "Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy xususiyatlari (Buxoro viloyati misolida)" Iqtisod fanlari nomzodi Ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati
29. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinci kitob: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «SHarq», 2003, 79-b.
30. Xaqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. "O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari"; T:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"; 2006 y.; 220-260-betlar.
31. Xudoyberdiev Z.Ya., Rustamova D.D., Majidov N.M. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", O'quv qo'llanma, T:, "Cho'lpon", 2010 y., 85-122-6.
32. Ekonomiceskaya teoriya: Uchebnik. - Izd., ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrinina, G.P.Juravlevoy, L.S.Tarasevicha. – M.: INFRA-M, 2005, s.422.

## **VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar**

33. Dadalko S., Kozlovskaya Z., Dadalko V. “Privlechenie inostrannых investitsiy v kontekste natsionalnoy bezopasnosti”, “Bankovski vestnik”, 2013
34. Gordienko D.V. Ekonomicheskaya bezopasnost Rosii: ponyatie, struktura, sravnitelnaya i perspektivnaya otsenka.
35. Taraqqiyot borasida hamkorlik haqida hisobot: 17 bet O‘zbekiston, 2009
36. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi “O‘zbekiston raqamlarda”, Toshkent-2012-2015
37. Illarionov A. Kriterii ekonomicheskoy bezopasnosti. // Voprosy ekonomiki. 1999. №10.

## **VII. Internet saytlari**

38. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalı
39. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti
40. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligining rasmiy sayti
41. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti
42. [www.review.uz](http://www.review.uz) – Jurnal “Ekonomicheskoe obozrenie”
43. [www.ser.uz](http://www.ser.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar markazining rasmiy sayti
44. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti
45. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti
46. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz) – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining rasmiy sayti
47. [www.ictsd.org/bridges-news](http://www.ictsd.org/bridges-news) (UNO; GLOBAL INVESTMENT TRENDS MONITORING)